

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!


www.mv-vatanparvar.uz

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 31-yanvar
№5 (3119)

UZ ARMIYA

Mardlar
qo'riqlaydi
Vatanni!



4-5 SADOQAT – VATAN
HIMOYACHISINING
MA'NAVIY QUDRATI

8-9 TARIXIMIZNING
O'QILMAGAN
SAHIFALARI KO'P

14 YUKSAK E'TIBOR
NAMUNASI

18 TO'MARISNING
CHAMPION QIZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz

vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

ISLOM SIVILIZATSİYASI MARKAZI – MILLİY O'ZLIGİMİZ, ILM-FAN, TA'LIM VA MADANIYAT TİMSOLI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-yanvar kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.



Bu majmua tariximizda ilgari bo'lmagan ulkan va noyob loyihadir. Bugungi kunda muhtasham bino qad rostlab, qurilish yakuniy bosqichga kirgan.

Ushbu markaz Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan boshlanib, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni davlatimiz rahbari uning poydevoriga tamal toshi qo'ygan edi.

Bag'oyat ulug'vor markaz binosi uch qavatni tashkil etib, qadimgi me'moriy obidalarimiz shaklida bunyod etilmoqda. Milliy gumbaz va peshtoqlar, naqshlarning ajoyib uyg'unligi unga alohida ko'rк va salobat bag'ishlagan. Majmuuaning to't tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o'rtada 65 metrli gumbaz qurilgan.

Markazning eng asosiy qismida Qur'on karim zali bunyod etilmoqda. Bu yerda musulmon dunyosining ma'naviy durdonasi – qadimiy Usmon Mus'hafi joylashtiriladi. Shuningdek, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, O'zbekxon, temuriylar va boshqa tarixiy sulolalar davrida bitilgan muqaddas kitobimiz nusxalarini va ularning eski o'zbek tilidagi tarjimalari qo'yiladi. Jahondagi eng nodir qo'lyozma Qur'onlardan namunalar ham o'rin oladi.

– Xalqimizning boy va betakror merosiga oid ko'p kitoblar, turli o'lkalarga sochilib ketgan qo'lyozmalar, noyob ma'lumotlar, san'at asarlari, afsuski, bizga nom'a'lum edi. Mana shu markaz sabab bo'lib tarixni o'rganishda katta qadamlar qo'yidik, yangi manbalar yuzaga chiqdi. Endi bularning ta'siri, natijasi qanday bo'ladi? Ularni faqat yodgorlik sifatida saqlamasdan, faol ilmiy iste'molga kiritish, aholimiz, yoshlarimizga tushunarli tilda yetkazish, jahon jamoatchiligiga keng targ'ib qilish kerak. Bu dargoh nafaqat o'tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog'laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan

aql-tafakkur markazi bo'lishi zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Majmuada "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinchi Renessans davri", "Ikkinchisi Renessans davri", "O'zbekiston XX asrda", "Yangi O'zbekiston – yangi Renessans" kabi bo'limilar tashkil etiladi. Prezidentimiz ularning ilmiy konsepsiysi, yaratilgan sharoitlarga alohida e'tibor qaratdi.

Mazkur davrlar tarixi turli ashayolar, qo'lyozma manbalar, suratlar va multimedia vositalari orqali namoyish etilgan. Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ali Qushchi kabi alloma va mutafakkirlarning serqirra faoliyatiga haqida ma'lumot berilgan. Imom Buxoriy, Imom Termizi, Hakim Termizi, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi ulamolarning islam ma'rifatiga qo'shgan hissasi atroficha yoritilgan.

Ayni vaqtida majmuada Bibixonim, Xonzodabegim, Gavharshodbegim, Gulbadan, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin kabi tariximizda chuqur iz qoldirgan mashhur ayollarning ilm-ma'rifat homiysi sifatidagi faoliyatini ham o'z ifodasini topgan. Bu ekspozitsiya bugungi qizlar uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari markazning faoliyatini va ahamiyati haqida to'xtaldi.

– Islom sivilizatsiyasining, islam ta'limotining zamini aslida ilm-fan, madaniyat, ta'lim va tarbiyadir. Biz barpo etayotgan markazning bosh g'oyasi, asosi ham shu. Eng muhim tomoni – yurtimizdagি islam madaniyatini bilan bog'liq bir necha ming yillik qadimiy o'tmish bir joyda – mana shu majmuada mujassam bo'ladi. Markaz bilan tanishgan odam ana shu tarixni yaqqol ko'rib, islam dini, bu avvalo, tinchlik

taraqqiyot va bag'rikenglik dini ekanini, o'zbek xalqining dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissasini anglaydi, – dedi Prezident.

Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, markazda ulug' ajodolarimiz merosini chuqur tadqiq qilish, uni bugungi kunning o'tkir muammolariga javob bera oladigan hayotbaxsh kuchga aylantirish zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy nomidagi va boshqa xalqaro ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish, bирgalikda zamonaviy tahdidlarga munosib ilmiy javoblar topish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak.

– Nasib etsa, bu majmua o'zimizning me'moriy tajribamiz, Yangi O'zbekistonning bunyodkorlik maktabi, ilmiy-ma'naviy salohiyatimiz ramzi sifatida tarixga kirdi. Har bir bo'limning mazmun-mohiyati ayni shu maqsadga qaratilishi lozim. Chet eldagи mashhur muzey va kutubxonalar, nufuzli mutaxassislar bilan hamkorlik yo'lg'a qo'yilgani, kitoblar, maqolalar nashr etilayotgani e'tiborga loyiq. Bu ishlар doimiy va ilmiy asosga ega bo'lishi uchun ishni rejali tashkil qilish kerak. Bosh maqsadimiz – milliy o'zligimizni anglash va anglatish, – dedi davlatimiz rahbari.

Markaz tomonidan bir qator xalqaro ilmiy muassasa va tashkilotlar, jumladan YUNESKO, AYESKO bilan yaqin hamkorlik o'matildi. 2024-yil avgustda Toshkent va Samarcand shaharlarida "Buyuk ajodolar merozi – Uchinchisi Renessans asosi" mavzusidagi VIII xalqaro kongress o'tkazildi. Unda 35 ta davlatdan 200 ga yaqin xorijiy olim qatnashib, markaz bo'yicha qimmatli taklif va tavsiyalar bildirdi.

Qurilish ishlari va ekspozitsiya bilan tanishish rayonida Shavkat Mirziyoyev markaz faoliyatini tashkil etish, uning

ma'no-mazmunini yanada boyitish va takomillashtirish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Toshkentning turizm salohiyatiga bag'ishlangan taqdimot bilan ham tanishdi.

Bunday loyihalar ko'p joylarda boshlangan. Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Yunusobod, Yakkasaroy, Yangihayot tumanlarida 7/24 tartibida ishlaydigan o'nlab sayyohlik manzillari tashkil etilgan.

Toshkentning eski shahar hududi o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega. Bu yerga yilning barcha mavsumida xorijiy sayyohlar ko'p keladi. Shu bois hudud turizm xizmatlariga ixtisoslashtirilmoxda. Jumladan, o'tgan yili Chorsu bozori yonidagi Gulbozor mahallasida shunday ko'cha tashkil etilgandi. Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i ham obodonlashtirilmoxda.

Endi bularga uyg'un ravishda gastronomik va turizm ko'chalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Buning uchun 17 ta ko'cha va 32 ta berk ko'cha tanlab olingan. Ularda Eski shaharning o'ziga xos me'moriy qiyofasini saqlab qolgan holda, qo'shimcha infratuzilmalar yaratiladi.

Buning natijasida hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar soni 250 taga ko'payadi, 1 ming 500 ta ish o'rni ochiladi. Muhibbi, kunlik sayyohlar soni hozirgi 4 mingtadan 11 mingtaga ko'payishi kutilmoqda.

Mutasaddilarga tadbirkor va hunarmandlar uchun qulayliklarni ko'paytirish, sayohatlarni mazmunli va qiziqarli tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti matbuot xizmati suratlari**



Harbiy tarix

ALP, BOTUR, O'G'LON – O'Z DAVRINING UNVONLARI

Mustaqillik davri o'zbek tili harbiy terminologiyasining shakllanish va rivojlanishiga turki bo'lgan ijtimoiy shart-sharoit hamda omillar, harbiy terminlar tizimining taraqqiy etishida o'zbek tili qatori boshqa tillarning salmoqli o'rni bor. Istiqlol yillari o'zbek harbiy terminologiyasida ham ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Biz amalda qo'llayotgan harbiy atamalarining aksariyati mohiyatan Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar davri qo'shin tuzilishi bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, VII-X asrlarda qo'llanishda bo'lgan qadimgi turkiy tilga xos istilohlar bilan yonmayon yangi tushuncha va ma'nolarni ifodalovchi terminlar muomalaga kirib keldi. Qoraxoniylar sultanati Qurolli Kuchlari tizimi va qurilishi xususida ma'lumotlar asosan "Qutadg'u bilig" hamda "Devonu lug'oti-t-turk" asarida o'z aksini topgan.

Hamidulla Dadaboyev, Hamid Yodgorov muallifligidagi "**O'zbek harbiy terminologiyasi**" ilmiy-uslubiy qo'llanmada mudofaa tizimiga oid istilohlarning kelib chiqishi, ma'nosi va qo'llanilish davri yuzasidan muhim faktlar bayon qilingan.

Xususan, bugungi kunda Qurolli Kuchlar, armiya ma'nosida faol qo'llanayotgan qo'shin termini qo'shun shaklida o'zbek tiliga mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Chingiziyalar qo'shinda ushbu istiloh maxsus harbiy qismni bildirgan. **Temuriylar davrida 50 tadan 100 tagacha jangchidan tashkil etilgan kichik harbiy bo'lmalar qo'shun deb yuritilgan.** Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarining bir o'rniда Amir Temur 200 ta askardan to'rt, boshqa bir joyida 600 jangchidan yetti qo'shun tuzishga buyruq bergenini ta'kidlaydi.

Biz kundalik hayotimizda "**alp**", "**botir**", "**o'g'lon**" so'zlariga ko'p bor duch kelamiz. Yoshi ulug'lar bejiz "Alp yigit bo'lsin!", "Bilagi zo'r botir bo'lsin!" deya duo qilishmaydi. Chunki bu so'zlar o'z davrining haqiqiy unvonlari edi. "Alpomish" dostonida Hakimbek alplik maqomini olgunicha bir qancha murakkab sinovlardan o'tib boradi va Alpomish nomini oladi.

Ko'k turk xoqonligida navqiron, yosh jangchilardan tuzilgan qo'shin o'g'lon termini bilan atalib, ularning soni yetti-o'n ming atrofida bo'lgan. Har bir jangchining jismoniy yetukligi va jangoval salohiyati individual tarzda baholanib, bahodir, mard, pahlavon

askarlarga alp, alpag'u unvonlari berilgan. Hatto mohir o'q otuvchi, ya'ni menganlar ham alp unvoniga sazovor bo'lgan.

ENG ASOSIYSI, jangda matonat va qahramonlik ko'rsatgan askar sharaflı botur unvoniga munosib topilgan (*Qiyosan olib qaralganda, hozirgi "Mard o'g'lon" unvoni*). Shu bilan birga, "jangchi", "askar" va "qo'shin" ma'nolari cherig istilohi qatori er, eran so'zlari bilan ham ifodalangan.

Ma'lumot uchun aytish kerakki, fors-tojik tilidan o'zbek tiliga kirgan sarboz o'zlashmasi XIV-XV asrlarda "**askar**", "**jangchi**" ma'nosini bildirgan. XIX asrda kelib, ushbu istilohning ma'nosida muayyan o'zgarish sodir bo'lgan. Chunonchi, Buxoro amirligida mutazam piyoda qo'shin, Qo'qon xonligida esa yevropacha andaza bo'yicha shakllantirilgan mutazam piyoda qo'shin askari ayni istiloh bilan atalgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida "**qo'shin**", "**armiya**" ma'nosini ifodalash asosan Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar zamonida su istilohi bilan yonma-yon qo'llangan cherig hamda fors-tojik tilidan o'zlashgan sipoh terminlari zimmasiga yuklatilgan, ayrim manbalarda Xorazmshohlar davri harbiy terminlar tizimida faol ishlatilgan arabcha jaysh istilohining ham iste'molda bo'lganini ko'rish mumkin. Amir Temur qo'shinda turli tuman, viloyat, o'ika, yurtlardan olyi farmonga ko'ra, yig'ilgan otliq hamda piyoda jangchilar forscha-tojikcha lashkar o'zlashmasi bilan anglashilgan.

Bobur va Shayboniyxon qo'shinda "**lashkar**", "**askar**" ma'nosini ifodalashda sipoh, cherig, lashkar terminlari qatori, mo'g'ulcha navkar o'zlashmasining qo'llanish darajasi ham ancha baland bo'lgan. Chingiziyalar davrida navkar istilohi xon yoki boshqa mo'g'ul rahnamolari xizmatida bo'lgan shaxs (*drujinachi*)larga nisbatan qo'llangan. Tarix navkarlarning

mustaqil korpus va qo'shinga qo'mondonlik qilganidan dalolat beradi.

"O'ZBEK HARBIY TERMINOLOGIYASI" ilmiy-uslubiy qo'llanmasida yozilishicha, Qoraxoniylar qo'shini qo'mondonlar tarkibini shakllantirgan suboshi, sipohsolor, amir, voliy singari harbiy mansab egalari shaxsan saltanat hukmdori xoqon, ulus boshlig'i elig yoki xonga bo'ysungan. Sarkardalar tarkibi nafaqat oqsuyak zodagonlar, balki omma ichidan yetishib chiqqan shaxslardan iborat bo'lgan.

Qurol-yarog' ma'nosidagi qur so'zidan hosil bo'lgan qurchi istilohining dastlab qo'llanishi XIV asrga to'g'ri keladi. Soqchilik bilan shug'ullangan qurchi kezi kelganda, muayyan askariy guruhga rahbar etilib, harbiy harakatlarga jo'natilgan.

Qurol-aslasa ma'nosidagi "**yarog'**", "**yaroq'**" termini bilan yonma-yon arabcha "siloh", "saloh" o'zlashmasi ham faol qo'llanishga kirgan. Sovutlarning turli ashyolardan yasalishi ularni anglatuvchi istilohlarda ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, simdan to'qilgansovut turi javshan deb nomlangan, javshanning ustidan xitoy shoyisidan tikilgan to'n kiyilgan, bunday himoya turi bilan ta'minlangan askar javshanlig' termini bilan atalgan.

Sovut so'ziga ma'nodosh "**choroyna**" atamasi ham xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan. Jangchining o'q, tig' zarbidan saqlanish uchun badaniga o'rab bog'lanadigan harbiy aslasa shunday atalgan. U to'rt parcha yassi metallni bir-biriga birlashtirib yasalgan.

DARVOQE, hozirgi milliy armiyamizda "**jangoval qichqiriq**" termini amalda faol qo'llanayotgani barchamizga ma'lum. Tarixda raqib qo'shinlar bir-biriga ro'para kelgach, qurol-yarog'larini yuqori ko'tarib, baland ovozda qiyqirishib, shovqin-suron ko'tarishgan. Ular turkiyacha "hay-u hay" ("ura") so'zini birlashtirib aytishgan.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"



Suhbat

SADOQAT



VATAN HIMOYACHISINING MA'NAVIY QUDRATI



Muhammadjon QURONOV

Prezidentimiz tabrigida hozirgi vaqtida, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgani tilga olindi. Bunday vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarining jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har bir harbiy murabbiyi, ayniqsa harbiy pedagogning kasbiy burchidir.

Bugun yoshlar ma'naviyatida, xarakterida qanday fazilatlarni tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak?

"Vatanparvar" gazetasi bu borada ziylolarning fikrini bilishga harakat qildi. Shu maqsad bilan tahririyatimizga mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlari va yoshlar bilan ishlash bo'yicha maslahatchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Olimjon O'sarov hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori o'rinnbosari, pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronovning bu boradagi suhbatini e'lon qilmoqda.

Olimjon O'SAROV:

- Har yilning yanvar oyiga xalqimizda bir ulug' ko'tarinkilik, ruhan tetiklik bilan boshlanadi. 2025-yil ham shunday shukuh bilan boshlandi. Hammamiz, kasbimizdan qat'i nazar, bir-birimizni 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikladik. Bir-birimizga ijtimoiy tarmoqlardan tabriknomalar

yo'lladik. Ularda hammamizning jon-u jahonimiz - O'zbekistonimizga muhabbatimizni izhor qildik, bo'lishdik. Bu bejiz emas. Biz vatanparvar, qahramon bobolarning avlodimiz. Azaldan xalq rahnamolari yoshlarni Vatanga sadoqatli bo'lishga da'vat qilib kelgan. Har bir zamon, davr ulardan buning tasdig'ini, namoyishini kutgan, ko'rgan.

Yoshlarga Vatanga sadoqatning neligi, ma'nosi tushuntirilgan. Dostonlarda kuylab qalblarga sadoqat quylgan. Ma'naviy qurollantirilgan. Bu esa bugungi kun uchun eng zarur fazilatlarning yoshlar xulqiga ko'chishiga xizmat qilgan. Mana shu an'ana yangi tusda, zamon bilan hamqadamligini ko'rib, ichdan suyunib yashayapmiz. Buning boisi yoshlarimiz, harbiy xizmatchilarimiz so'zlaridagi, siymosidagi, niyatidagi, xulqidagi sadoqatdan xotirjammiz. Lekin sadoqat ham parvarish qilib, kuchaytirib turiishi zarur. Shunday emasmi?

Muhammadjon QURONOV:

- Sadoqat - ma'naviy hodisa. U o'zidan o'zi paydo bo'lman, bo'lmaydi. Shuning uchun azaldan ota-bobolarimiz maqol, ertak, doston to'qib, kuyga solib, aytib, sadoqat urfini yoshlarga o'rgatib kelgan. Sadoqat o'zlik yo begonalik masalasi. U ketsa, o'rnini xiyonat egallaydi. Doim shunday bo'lgan, hozir ham shunday. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari oldida qilgan Murojaatnomasida "O'zimiz

o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, men aminman, ko'zlagan barcha marralarimizga albatta yetamiz...", deya mas'uliyatga, safarbarlikka, Vatanga sadoqatli bo'lishga da'vati buning yaqqol misolidir. Chunki bugun kechagidek o'ylasak, ishlasak, kechagidek yashayveramiz. Biz milliy yuksalishning Yangi O'zbekiston fazasiga kirdik. Yuksalish tiklanishdan ko'ra ko'p kuch, energiyani talab qiladi. Chunki yuksalish - perpendikulyar harakat.

Olimjon O'SAROV:

- Bunday paytda "Biz bir oddiy odam bo'lsak, bizga qarab qolibdimi? Boshqalar bor-ku", deb o'zini chetga olib turuvchilar ham bo'lgan. Biroq bu yumshoq qilib aytganda - loqaydlik, befarqliq, begonalik. Loqayd qancha ko'p bo'lsa, sodiq vatanparvarlar yelkasi shuncha ko'proq qavaradi. Biz murabbiylar bunga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

O'zbekiston - 37 million hujayradan iborat bir jon-u bir tanli organizm. Tariximiz ham, taqdirimiz ham shu Vatanda - O'zbekistonda. Unga bir farzand bo'lib, qiladigan xizmatimiz qanday, qancha bo'lishi har birimizning

Vatanga sadoqatni bugun qanday tushunishimizga, unga qanchalik amal qilishimizga bog'liq.

Muhammadjon QURONOV:

- Juda topib aytdingiz, Olimjon. Bir pedagog sifatida men ham bir savolga javobni ko'p o'layman.



Olimjon O'SAROV

Vatanga sadoqat nimada ko'rindi? Dildami, tildami, qo'ldami, ishdam? Bu savolga **har bir yigit-qizimizning o'z, shaxsiy, keskir javobi bo'lishi kerak.** Boshqacha qilib aytganda, sadoqatni kinofilm, spektakl, kitob, qo'shiqlardan hayotga olib chiqishimiz kerak. Toki to'rt tomonimizda Vatanim, deb o'z sohasida shijoat ko'rsatayotgan millionlab yigit-qizlarni ko'raylik. Aks holda sadoqat dilda, yo tilda qolib ketishi mumkin.

Olimjon O'SAROV:

- Vatanga sodiqlik - fazilat. Vatanga sadoqat bugun bizdan nimalarni talab qilyapti? Mehr va safarbarlikni, amaliy ishlarni. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, "Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak".

Vatanga sadoqat deganimizda ko'hna tarix, sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, jadid bobolarimiz, Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari, ulardan so'ng mustaqilligimiz himoyachilarining jasoratlari gavdalanadi. Chunki ular o'z zamonasini da'vatidan kelib chiqib, Prezidentimiz aytganlaridek,

“Bor aql-zakovati, bilim va tajribasini, jonajon Vatanimizga farzandlik mehri va sadoqatini safarbar etishgan”. Bugun dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyat bizdan sadoqatning ma'nosini bugungi kun shiddatidan kelib chiqib tushunishni talab qilmogda. Bu bizdan Vatanga sadoqatni ertaga, kelajakda emas, bugun ko'rsatishni talab etmoqda.

Muhammadjon QURONOV:

- Buning uchun “safarbar sadoqat”ning bugungi talablari qanday? Bugun Vatanga sodiq inson qanday bo'lishi kerak? Vatan bizdek o'g'il-qizlaridan yolchishi uchun biz amalda nimalarni qilishimiz, nimalardan tiyilishimiz kerak? Yoki nega bayrog'imizni, undagi moviy rang – sadoqat timsolini boshimizdan ham baland tutamiz, degan savollarga shaxsiy javoblarimiz bo'lishi kerak.

Masalaga ilmiy yondashmasak, sadoqat balandparvoz so'zga aylanadi. Adashamiz. Chunki ilm – xolislik degani. Sadoqat nima? Ilmiy adabiyotlarda unga – odamning qudrati, unga ta'sir qiladigan voqeа, tashqi yoki ichki omillar, aldonlar qarshiliga dosh beruvchi, toblangan ichki “umurtqasi” kuchining namoyon bo'lishi; odamning o'zi aytayotgan so'zlar, pozitsiyasi, yondashuvi haqligiga qattiq ishonish, deyiladi.

Sadoqat odamning Vatani, unga ishongan, uning sevgan kishilarli oldidagi burchini anglashidan kelib chiquvchi fidoyiliği, javonmardligi. Uning ma'nosи “O'zbek tilining izohli lug'ati”da do'stlik, birdamlik, samimiylig; chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlik degan sadoqatga “qarindosh” so'zlarda ochib berilgan. Demak, bu so'zlar, ularning ma'nolari (*ma'naviyati*)ni har bir harbiy xizmatchi qalbiga jo qilib olishi kerak. Ana shunda u nafaqat jismoniy kuchga, balki qudratli ma'naviy kuchga ega bo'ladi.

Olimjon O'SAROV:

- Darvoqe, dunyo tajribasiga qarasak, harbiy sohada ikki yo'nalishda doimiy tayyorgarlikka erishish uqtirib kelinganini ko'ramiz. Bular Qurolli Kuchlarning ma'naviy va jangovar tayyorgarligi. Masalan, AQSh Mudofaa vazirligiga qarashli Qurolli Kuchlar maktabi tomonidan chop qilingan hujjatlarda “Barcha darajadagi armiya rahbarlari Amerika xalqining ishonchini qozonish va xizmat qilish uchun yuqori axloqiy-ma'naviy standartlarni ishlab chiqish va saqlash uchun javobgardir”, deb qayd qilingan. Unga ko'ra, AQSh Qurolli Kuchlarning ma'naviy-ruhiy takomiliga sabab harbiy xizmatchilar ma'naviy-ruhiy kamolotini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyatining samarali yo'lgan qo'yilgani bilan izohlanadi.

Ma'naviy tayyorgarlik nemis armiyasida ham ustuvor sanaladi. Germaniya armiyasi xizmatchilar 14 ta ma'naviy-axloqiy tamoyilga amal qiladi. **Bu tamoyillarning birinchisi – Vatanga muhabbat, vatangparvarlik, deb belgilangan.** Bundesver yoshlar orasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, bo'lajak

harbiy xizmatchilarni tanlash, tayyorlash bo'yicha ma'naviy-axloqiy talablar belgilangan. Buyuk Britaniya harbiy rahbariyati tomonidan ommaviy axborot vositalarida targ'ibotni kuchaytirish orqali jangovar ruhni oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhammadjon QURONOV:

- Bu fikringiz menga generallar orasida o'zaro aytib yuriladigan bir harbiy maqolni eslatdi. Unda **“Jangovar tayyorgarlik muhim. Lekin o'qni qayoqqa qarab otishni askarga mafkuraviy tayyorgarlik ko'rsatadi”**, deyiladi. Shuning uchun vatangparvarlik mafkurasini milliy darajaga ko'tarishda tarbiya ilmi, pedagogikadan unumli foydalanyapti. Masalan, Xitoy pedagogikasining asosiy g'oyasi milliy vatangparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq. Xitoy pedagogik matbuoti materiallarida “Vatangparvarlik – bu xitoyliklarning eng yaxshi an'anasi va milliy fazilati”, degan g'oya singdirib kelinmoqda.

Olimjon O'SAROV:

- Vatanga sadoqat – sinov. Uning sinovlaridan o'tish oson emas. Sadoqat – odamdag'i kuchli ma'naviyatning kuchli xarakteri borligining belgisi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy shay bo'lisingning ahamiyati o'ta muhim.

Chunki sadoqat – ma'naviyat masalasi. U odamning Vatan oldidagi o'z burchlarini bilishiga, tushunishiga, anglashiga quriladi. Burchni oqlash esa oson emas. U qiyinchiliklardan chekinmaslikni, toymaslikni, qaytmaslikni, ularni mardona, chidam bilan bartaraf qilishni, o'zini qiyashni talab qiladi. Hayotda uchraydigan chalg'ituvchi manfaat, yengillik, makr-aldovlarga uchmaslikni, qancha qiyin bo'lmasin, unga ishonib, topshirilgan ishonchni oqlab, natijaga erishishni, matonatli bo'lismi talab qiladi.

Sadoqat ishonch ustiga quriladi. Ishonch esa ishontirishning natijasi. Ana shunda qattiq ishonch katta sadoqatni talab qiladi. Uni oqlash uchun odamdag'i barcha yaxshi fazilatlar oyoqqa turadi, ishga tushadi. **Sadoqat egasining yuzini yorug' qiladi. Bundan odamning o'ziga ishonchi, hurmati oshadi.** Odamlar oldida tutgan o'rni, qadr-qimmati mustahkamlanadi. Undan rozi odamlarning hurmati, do'stligi, muhabbati oshadi. Bu esa har bir insonning orzusi, shunday emasmi?

Muhammadjon QURONOV:

- Juda to'g'ri aytdingiz. Har birimizda Vatanga sadoqatning u yoki bu darajasi bor. Gap ana shu sadoqatni anglab, o'ziga o'zi yuqoridagi savollarni berib, oshirib, o'zini har kuni, o'z ish joyida, postida safarbar etishda. **Barcha sohalarda Vatanga sadoqatni namoyon qilish uchun imkoniyatlar ko'p.** Ammo ayrim yoshlarimiz buni kundalik hayotda qanday namoyon qilishni bilishmaydi. Ular vatangparvarlik qandaydir favquloddagi vaziyatlarda namoyon bo'ladi, deb o'ylashadi. Kuch, g'ayrati bor, ammo uni qayerga sarflashni bilmaydigan kishidek. Bu savol nafaqat bizning, balki

dunyoning ko'pchilik yoshlarida bor. Demak, qaysi mamlakat yoshlarida mana shu g'ayrat, pok niyat bilim, ma'naviyat bilan boyitilsa, maqsadga yo'naltirilsa, o'sha tez rivojlanar ekan.

Olimjon O'SAROV:

- O'qituvchi-murabbiylar, serjantlarning Vatanga sadoqatining bosh jihatni “yoshlarimiz qalbi va ongiga ona Vatanga sadoqat tuyg'usini singdirish”da ekanib berildi. “Bunga tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” erishilishi aniqlab berildi. Gap shundaki, sadoqatning ziddi – xiyonat ham sohaviy xususiyatga ega-da.

Prezidentimizning **“Biz qanday marraga erishmoqchi bo'lsak, unga faqat ona yurtimizga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik bilan erishamiz”**, degan fikrlarida sadoqatning umumiy va xususiy, sohaviy mohiyati ochib berilgan. Demak, bugun bizdan mehnatda, o'z kasbiy burchiga sadoqat talab etilmoqda. Bu har birimizga har kuni berilayotgan imkoniyat. Masalan, sportchi yoshlarimizning Vatanga sadoqati ularning g'alabalari da namoyon bo'layotir. Ayni vaqtida ularning g'alabalari yoshlarimizga ibrat bo'lib, ularda Vatanga sadoqatni tarbiyalamoqda.

Muhammadjon QURONOV:

- Insoniyat tarixi sadoqat nafaqat kuchli, qudratli jins – erkaklarga, balki ayollarga ham xosligini ko'p ko'rgan. Ma'naviyati kuchli ayollar azaldan sadoqat ramzi bo'lib kelgan. Biz oilmiz charoq'onligi, xotirjamliyi xotin-qizlarimizning har kunlik sadoqatidan ekaniga o'rganib qolganmiz. Lekin kezi kelganda, sadoqat burchi ayolni filday kuchli qilar ekan. Buni qadimiy rivoyatlar ham tasdiqlaydi. **Mana, ulardan biri:**

“Bir shaharni yov bosib, hammani asir qiladi. Dushman lashkarboshisi shahar ahlini bir maydonga to'plab: “Men xotin-qizlarni asirlikdan ozod qilmoqchiman. Ertaga tongda xotin-qizlar o'zlar ko'tara olgunicha narsalarini olib, chiqib ketsin”, deydi.

Tongda lashkarboshi shahar darvozasi oldiga keladi. Manzarani ko'rib, larzaga tushadi. Chunki shahar darvozasidan momolar, ayollar, o'smir qizlar o'zlarining nozik yelkalarida ota, aka-ukalarini, sevgan yorlarini, o'g'llarini orqalab chiqib ketardi. Xotin-qizlarning sadoqati tufayli shaharda bitta ham asir qolmaydi”.

Olimjon O'SAROV:

- Qalblarni larzaga soladigan misol ekan. Odam qiyin vaziyatda qolsa, uch yo'ldan birini tutadi. Burchiga sodiq qolib, kurashib muammoni hal qilish, indamay tashlab qo'yish, muammodan qochish. Ana shu lahzalarda shayton xiyonatga advokatlik qiladi. Noshukrlikka, o'z zimmasiga olgan burchini, mas'uliyatini ado etishdan qochishga avraydi. Ana shunda darsni sifatsiz o'tish, ta'mirni nomiga qilish, ishga kech kelib, erta ketish, o'zi qo'l qo'ygan shartnoma shartlarini buzish, soliqdan qochish, tarozidan urib qolish, jinoyatni yashirish, qarz olib kech qaytarish yoki umuman qaytarib bermaslik, yolg'on hisobot berish, tumanda hal bo'ladigan ishni hal qilmaslik, mansabini suiste'mol

qilish, ko'zbo'yamachilik, sog'ni bemor, bemorni sog' deb ma'lumot berish kabi holatlar uchrashi mumkin. Ana shunda ustozlik, quruvchilik, xodimlik, hamkorlik, do'stlik, xizmat burchi, kasbiy, funksional vazifa, xizmat ko'rsatish sohalarida bildirilgan ishonchlar oqlanmay qoladi. Bunday holatlar milliy yuksalishimizga katta-kichik to'siqlarni paydo qiladi.

Muhammadjon QURONOV:

- Odam bolalikdan kichik-kichik sadoqat-xiyonatlarni ko'rib ulg'ayadi. Masalan, ota yo ona bolasiga biror narsani va'da berib, bajarmaydi. Bir gapni o'z vaqtida aytish kerak – aytilmaydi, ertaroq kelish kerak – kech kelinadi. Vaqtida ketish kerak – ertaroq ketiladi. O'zini qiyashi kerak – qiynamaydi. O'zi qilishi kerak bo'lgan ishni – birovga “Qarab qo'y!”, deydi. “Nega bunday qildingiz?”, desangiz, “Birinchi marta-ku. Nima qilibdi? O'zingiz shunday degandek bo'lvdingiz-ku! Ozgina-ku. O'tib ketadi-ku. Hamma shunday qiladi-ku. Hech kim sezmadiku”, deb oqlanadi. **Bular – xiyonatning yumshoqroq, boshqa so'zlar bilan “oqlanadigan” ko'rinishlari, simptom signallari.** Bunday muhitda mas'uliyatsizlik, og'irning ostidan, yengilning ustidan yurish ayb sanalmay qoladi.

Olimjon O'SAROV:

- Xiyonat tug'ma illat emas, noma'qul tarbiya mahsuli. O'z vaqtida ota-on, ustozlarning bolalarni so'z bilan ish birligiga, mas'uliyat, sadoqatga odatlantirmaganining oqibati. Nima qilmoq kerak? Yana, yana va yana ma'naviyat, yana tarbiya. **Har bir bolada Vatanga sadoqatning yoshiga mos tabaqalashgan darajasini kafolatli ta'minlab borishimiz kerak. Tarbiya masalasida ota bilan onaning dili, tili bir bo'lishi kerak.** Ba'zida ota “yo'q”, deb, ona “xo'p”, deydi. Bola bir muammoning ikki xil yechimi bo'lishi mumkinligini ko'rib, hayron bo'ladi. Otalar ko'pincha mehnatli rohatni, onalar – mehnatsiz rohatni taklif qiladi. Bola o'n marta maqsadga mehnat qilib erishsa, to'g'rilikka, o'n marta mehnatsiz erishsa-chi? Tayyorga ayyorlikka o'rganadi. Undan yolg'onga, munofiqlikka, ko'zbo'yamachilikka yo'l ochiladi. Yozuvchi K. Chukovskiyning “Ikkidan beshgacha” asarida insondagi zukkolik va hushyorlik, iqtidor va uddaburonlik yoxud yolg'onchilik va ayyorlikning aksariyati bolalar 2-6 yoshdalik davridayloq to'la shakllanishi va namoyon bo'lishi isbotlangan.

Sadoqat milliy qahramonlarimizning bosh fazilati bo'lgan. Sadoqat begonalardan umid qilinmaydi. Do'stlardan, farzandlardan, shogirdlardan kutiladi. Qarang, shuning uchun o'zbek bolasiga Sodiq, Siddiq, Sadoqat, Siddiq, Muhammadsodiq degan ismlar qo'yadi. Xalq shoiri Erkin Vohidov sadoqatni “O'g'on oqil, mard bo'lgan, mardlik – elga sadoqat”, ya'ni oqillik va mardlikning yig'indisi degan edi.

- Samimiy suhbatingiz uchun rahmat.



“POROX HIDI BILAN ULG ‘AYDIM’”

Yig'ma karavotda tepaga qarab, qimir etmay yotibman. Bemajol. Oyog'im uchiga adyol tashlangan. Shiftda osilib turgan chiroq ko'zimga tushib, azob beryapti. Qoshlarimni chimirib, yuzimni tirishtiraman. Jilovini yo'qtgan o'yalarim allaqayerlarda kezmoqda. Boshimni turli fikrlar parmalaydi. Daf'atan eshik taqilladi. O'ng qo'limga tayanib, joyimdan og'rinish turdim. Ovoz kelgan tomonga chayqalib borar ekanman, oyoqlarimda umuman mador yo'qligini his qildim. Titrayapti...
Eshikni ochdim.

– Tayyor bo'lsangiz, ketamiz, – dedi kechadan buyon menga hamrohlik qilib kelayotgan kichik serjant. – Musobaqa boshlanishiga oz qoldi.

U baland bo'yli, baquvvat, yelkalari bo'yniga qo'shilib ketgan, burundor, ko'zlar biroz qisiq, pastki labi esa yuqoridagiga nisbatan qalinroq edi.

Mashinada Toshkent harbiy okrugiga qarashli "Chirchiq" dala-o'quv maydoniga yetib borganimizda, quyosh boshimiz uzra charaqlab turardi. Shunday bo'lsa-da, havo salqin, mayin shabada esyapti.

Musobaqa boshlangan ekan.

Maydonda ekipaj a'zolari shiddatli bahs olib boryapti. Tanklar shaxt bilan olg'a yurardi. Ularning motorlaridan chiqayotgan g'uvullagan tovush qulqlarni qomatga keltirardi. Tishli g'ildiraklardan otilib ketayotgan tuproq har tomonga sochilishidan havoga chang ko'tarilaverardi. So'ng borliqqa singib ketardi. Mana endi hech narsa ko'rinnay qoldi.

– Hozir otadi, – deydi tomoshabinlar orasida o'tirgan harbiy xizmatchi jarangdor ovozda. U ikki qo'li bilan boshini mahkam ushlab olgan. Ko'zlarini to'g'riga qaratib, chuqur-chuqur nafas oldi.

Aylanani bosib o'tgan tankchilar belgilangan nuqtaga kelib, to'g'ridagi nishonni mo'ljalga oldi. "O't och!"

buyrug'idan so'ng "bummm", degan ovoz yangraydi. Shunda qo'rquv vujudni qamrab oladi. Snaryad o'zidan olovli iz qoldirib, nishonni titib, kulini ko'kka sovurdi.

– Tegdi! – deydi boyadan beri qattiq hayajonda turgan podpolkovnik baland ovozda. Keyin yonidagi hamrohini bag'riga bosib, yelkasiga mammun urib qo'ydi. Qarsaklar chalindi.

O'sha ekipaj e'tiborimni tortadi. U barcha to'siqlarni tez bosib o'tdi. Nishonlarni ham bexato urdi. Tank yo'lda uchragan toshlarni ayovsiz ezg'ilab, to'fondek bostirib kelardi. O'zidan idamlab ketgan chang qa'rini yorib o'tib, marraga ham birinchilardan bo'lib kirlab keldi...

Yonimdag'i kichik serjantga qarayman. Gavdasini g'oz qilib olgan. Yuzimdag'i hayratni anglab, tilga kirdi:

– Ekipajga Hoshimov komandirlik qilyapti, – dedi u jiddiy turib, – mahoratlari tankchi. Kelajagi bor.

Shunday qilib, 2019-yilda Mudofaa vazirligida ilk marta o'tkazilgan "Tank biatloni" musobaqasida Hoshimov birinchini o'rinni qo'lga kiritib, tilga tushdi.

Bahslardan so'ng Muhriddin bilan tanishdim. O'rta bo'yli, ozg'indan kelgan yigit. Bug'doyrang. Ko'zlarini chaqnab turadi. Kamtar. Ammo qat'iyatl...

Bu tanishuvga ham ancha bo'ldi. So'ng u ko'plab musobaqalarda zafar quchdi. Xalqaro armiya o'yinlarining eng shiddatli va tomoshabinlarga zavq bergen

"Tank biatloni"da O'zbekiston sha'nini munosib himoya qildi. Dunyoning ilg'or armiyalarining tankchilari o'zaro kurash olib borgan maydonda mahoratini ko'rsatdi. Qaytmadi, qo'rqedi va uning jur'ati g'alabalarga sabab bo'ldi.

Muhriddin muddatidan oldin harbiy unvonlar oldi, davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. So'ng Mahfuzani uchratdiyu, uning ishqida yondi. Tunlarni bedor, o'tkazdi. Suygani bilan oila qurgach, barcha azoblar tumandek tarqaldi. Keyin ketma-ket ikki o'g'illi bo'ldi. U baxtdan sarmast edi. Vatan ichra Vatan qurdi. Hozir harbiy qismda komandir. Ham yetakchi, ham himoyachi sifatida gardaniga yanada mas'uliyat yukini oldi. Bundan cho'chimadi. Qaytanga, talabchanligi yanada oshdi.

Bu safar podpolkovnik Muhriddin Hoshimov bilan Forishdag'i poligonda ko'rishdik. Shu kuni ikkimiz hayot haqida ko'p gurunglashdik.

– Hammasi yoshlikda olingan tarbiyaga bog'liq, – dedi u. – Buni o'zim misolimda ham bemalol ayta olaman. Bolaligimda ota-onam yo'nalişni to'g'ri ko'rsatib, ertangi kunga ishontirgan. Intiluvchanman, yutqazishni istamayman. G'alaqa qozonish uchun tinmay harakat qilaman. Chunki "Olma pish, og'zimga tush", deb kutish bilan muvaffaqiyat qozonib bo'lmaydi...

Biz o'rik daraxti ostida yonma-yon o'tirardik. Turgan joyimizdan esa maxsus to'siqlar yo'lagidan o'tayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar bemalol ko'rinish turardi. Yigitlar to'liq jangovar holatda. Navbatma navbat vazifalarni bajaryapti.



Daf'atan Muhriddin sakrab turdi-da, nariroqdag'i ariqdan oqib turgan suvg'a borib, qo'lini tez yuvdi. So'ng yengil qadam tashlab, boy'a o'tirgan joyiga ohista cho'kdi. Qo'llarini keng qo'yib kerishdi.

– Ayniqsa, hozirgi davrda bu o'ta muhim masala, – dedim uning farzand tarbiyasi borasidagi so'zlarini davom ettirib. – Chunki bugun odamni chalg'ituvchi omillar juda ko'p. Har qadamda tuzoq bor. Sergak bo'lish kerak.

Suhbatdoshim indamadi. U chap oyog'ini uzatib, o'ngini ikki qo'l bilan mahkam quchoqlab oldi. Iyaklarini ko'tarib, to'g'riga tikilib o'tiribdi. Faqat ko'zlarini biroz qisib olgan. Qimir etmaydi. Muhriddin termilgan tomonga qarayman. Uzoqdan tank chang-to'zon ko'tarib, dovon tomon shaxt bilan boryapti. Ko'p yurmay, to'xtadi. So'ng snaryad otildi. Ko'kimtir tutun chiqdi.

– Yetmish ikkidan otishdi, – dedi u past ovozda. Hamon boyagiday o'tiribdi. – Ekipaj biroz shoshdi-da, esizgina. Bunday vaqtida xorijam bo'lish kerak.

U go'yo o'ziga o'zi gapirayotgandi. Yuzida norozilik alomati.

– Shu yerdan turib qaysi tankdan snaryad otilganini bildingiz-e, qoyil! – dedim hayratlanib. Chunki biz turgan joydan tankning bor salobatini sira ham ko'rib bo'lmadsi.

U menga jilmayib qaradi-da:

– Bilmaslik uyat axir, – dedi. Keyin yana gapida davom etdi: – Tepkini bossang-u, nishon yakson etilmay qolsa, unda o'zing zarbani qabul qilishga mahkumsan, ya'ni nishonga aylanasan. Shuning uchun ham tankchilar har bir snaryadni otar ekan, boshqa bunday imkoniyat bo'lmaydi deb qarashi kerak. Bu bizning oltin qoidamiz.

– Vahimasi olamni buzadi-da shu tanklarning, – dedim snaryad ovozidan bir seskanib tushganimni eslab. Keyin chap tomonimdan cho'p olib, etigimga ilingan barglarni urib tushirgancha Hoshimovga ko'z qirimni tashladim. Negadir uning yuzi jiddiy tortgandi. Qo'llari musht bo'lib tugilgan. Chap oyog'ining uchini asabiy qimirlatyapti. Boshini biroz egib, qalin qoshlarini chimirib, qovog'ini uyib olgan. Peshonasida paydo bo'lgan chiziqlarni bemalol ko'rish mumkin edi. Rangi ham qizargan. Uning shu turishini o'ljasini tilkorpora qilishga shay bo'lib turgan och bo'riga o'xshatish mumkin edi. Alazmada. Butun vujudini qahr-g'azab egallagan.

– Oshiq dardini oshiq bo'lmagan hech qachon tushunmagan va tushunmaydi ham,

– dedi u jangovar ovozda. Hamon to'g'riga qarab o'tiribdi. Keyin lablarini tishladi. O'ng qo'l bilan chekkasini og'rinib qashidi-da, davom etdi: – Qalbingiza qo'rquv solgan o'sha tanklar mening borlig'im, hayotim, – u hamon raqibiga zarba berishga tayyor jangchiga o'xshardi. – Armiyaga kelganidan to shu kunga qadar porox hidi bilan ulg'aydim.

Hoshimovning so'zları dona-dona chiqardi. Biz bir onda ming yillik dashmanga aylangandik.

– Harbiylik – taqdirim, tankchi bo'lish esa ana shu taqdirning oliy hukmi. Chavandoz uloqqa kirduncha o'z tulporiga ishongandek tank boshqaruviq o'tirsam, o'zimni shunday his qilaman. Qalblarni qo'rqtish va unga vahima solish aslida mening ishim. Bu vazifam! Shu yo'l bilan Vatanim tinchligiga qalqon bo'laman! Yovning bag'rini tilkalayman!

Ikkimiz ham jimmiz. O'rtaga og'ir sukunat cho'kkani. Endi ketgim kelyapti. Ro'paramizdan uch nafar harbiy xizmatchi o'tib ketdi. Ularning bittasi tanish – "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovida Hoshimov bilan birga ishtirot etganini ko'rganman. O'rta bo'yli, iyagi bo'rtib chiqqan, qorasoch yigit biz tomonga qarab qo'l silkib qo'ydi. Ikkimiz ham boshimizni baravar qimirlatib so'rashdik.

Quyosh g'arbga og'di. Shimol shamoli yonboshimizdagi o'rik va tut daraxtlari uchini ohista o'ynadi. Shoxlar mayin silkindi. Shunda qovjiragan barglar yerning yuziga avvalroq tushgan barglarga og'rinib qorishib ketdi.

– Yashashdan maqsad nima o'zi? – dedi Muhriddin. Kutilmaganda uning bergen savoldidan shoshib qoldim. O'ylayman. Ammo miyamga jo'yali fikr kelmaydi. Shuurim tamoman muzladi. Boshimga daf'atan og'riq kirdi. Haqiqatan ham,

yashashdan maqsad nima? Nahotki, hozirgacha mana shu savol meni o'ylantirmagan bo'lsa? Labimni tishlab, alamimni ichimga yutdim.

– Aslida bu dunyoda har kimning bajarishi kerak bo'lgan o'z missiyasi bo'ladi, – dedim. Biroq ovozim juda past chiqdi. Tomog'imni qirib, yo'taldim.

– Lekin buni hamma ham o'z vaqtida anglamaydi, – deya fikrimni davom ettirdi suhbatdoshim. – Dunyoga qanday kelgan bo'lsa, shunday o'tib ketadi. Vatan demaydi. Yuksalish demaydi. Nega? Chunki oilada ana shunday tarbiya berilmagan. Men chet elda o'tkazilgan ko'plab musobaqlarda ishtirot etdim. Ammo har safar shu tuprog'im hidini qumsadim. Bu ifor hech qayerda yo'q. Aslo topolmaysiz.

U oila, taraqqiyot, mehr-oqibat, sevgi kabi mavzulardan so'ng jahonda yuz berayotgan qurolli to'qnashuvlar haqida fikr bildirdi.

– Dunyodagi urushlar qachon bitadi? – dedi Muhriddin. Keyin o'zining savoliga o'zi javob berdi: – Qachonki, odamzod qalbidagi muhabbat qayta jonlansa. Atrofga yaxshilik urug'i sepilsa... Hamon o'zimni yaralangan qushdek his qillardim.

Muhriddin endi biroz tin olgandi. O'zini tutishi ham avvalgiday, xotirjam.

Ikkimiz baravar o'rnimizdan turdik. Chamasi, o'n daqiqa yonma-yon, jum yurib ketdik. Keyin podpolkovnik Hoshimovga kimdir sim qoqdi. U qo'l telefonini shoshmay ko'tarib, uzoq gaplashdi. Har zamonda qo'llarini silkib-silkib qo'yardi. Undan ko'zimni uzmay o'tirdim.

– Yaxshi, boraman, – dedi u suhbatga yakun yasab. So'ng oldimga shaxt bilan keldi.

– Endi bizga ruxsat! – dedi u. Keyin: – Armiyada ekanmiz, hali siz bilan ko'p uchrashamiz. Gurunglashamiz, – dedi.

– Albatta, gurunglashamiz, – dedim uning so'zlarini tasdiqlab.

Keyin u poligon tomon ketdi. Qisqa-qisqa, ammo tez qadam tashlardi. Ortinga o'girilib, yotoq tomon yurdim. Yana tank stvolidan snaryad otildi. Biroq bu safar sira ham seskanmadim. Qo'rqedim. Ovoz kelgan tomonga ham o'girilib, qaramadim. Bilardimki, podpolkovnik Hoshimovning shaxsiy tarkibi mashg'ulotlar olib borayotgandi. Ko'nglim shuning uchun ham tinch edi...

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Bahrom IRZAYEV

1977-yil 13-mayda
Samarqand viloyatida tug'ilgan.
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
"Qatag'on qurbanlari xotirasi"
davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi.
Jadidshunos olim.



Tariximizning

Sobiq Ittifoq tarixida millionlab fuqarolarning qoni bilan yozilgan sahifalar mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'on siyosatidir. XX asrning 30-yillarida "Gulag" lagerlarining tashkil etilishi, mazkur lagerlarda inson huquqining ko'z ko'rib, qulq eshitmagani tarzda poymol qilinishi kuzatildi. Afsuski, bu ko'plab davlatlar kabi O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Soviet davlatining qatag'on siyosati natijasida yuz minglab vatandoshlarimiz "Burjua millatchilik harakati targ'ibotchisi", "Bosmachi", "Aksilinqilobchi", "Xalq dushmani", "Vatan xoini", "Din peshvosi" kabi ayblovlar bilan o'limga mahkum qilinib, otib tashlandi yoki "Gulag" lagerlarda xor-u zorlikka giriftor etildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin har yili 31-avgust – Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bugun yurtimizda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo'limlari bugun samarali faoliyat olib bormoqda. Buning natijasida ko'plab olimlarimiz uchun tariximizning o'qilmagan sahifalaridagi bo'shligi to'ldirish imkoniyati yaratildi. Mana shunday ezgu maqsad yo'lida faoliyat olib borayotgan olimlardan biri tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, "Do'stlik" ordeni sohibi Bahrom Irzayevdir.

– **Bahrom aka, qatag'onga uchraganlar xotirasi deganda ko'pchilik ko'z o'ngida jadidlar gavdalananadi. Ammo siz va hamkasblaringiz olib borayotgan tadqiqotlar natijasida ularga tenglashtirish mumkin bo'lgan ko'plab taqdirlar aniqlangan.** Ayting-chi, ular orasida maorif, adabiyot, davlat boshqaruv organidan tashqari yana qanday soha vakillari bor?

– Tushunishim bo'yicha jadid taraqqiyatparvarlari deganda xalqimizning ko'z oldiga asosan adabiyot, maorif, san'at sohasi vakillari keladi, demoqchisiz. Nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham xuddi shunday qarash mavjud. Chunki jadidchilik avvalo maorif va madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish,

turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirgan. Jadidchilik mohiyatan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905, 1906–1916, 1917–1920 va 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

BUNDAN TASHQARI, Turkistondagi jadidchilik harakati Sharqda ham, G'arbda ham ko'proq So'fizoda, Tavallo, Behbudiy, Avloniy, Munavarqori, Cho'lpon, Qodiriy, G'ulom Zafariy kabi ijod ahli faoliyati orqali o'rganilgan. Ularning asarlariga, qoldirgan boy merosiga baho berish, tahlil qilish va o'rganish natijasida shunday muhit paydo bo'lgandir, balki. Jadidlar orasida haqiqatan ham ijod ahlidan tashqari boshqa soha vakillari ko'p. Chunki jadidchilik yoki jadidizm harakati o'z nomi bilan jamiyatdagi mavjud barcha sohada yangicha islohotlarni amalga oshirish g'oyasini ilgari surgan. Jadidlar safida ijodkor va davlat arboblaridan tashqari muhandislar, savdo-sotiq sohasi vakillari, harbiylar, olimlar, agronomlar, diniy ulamolar, mohir tarjimonlar, siyosatchi hamda boshqa yo'nalishlar mutaxassislar bo'lgan. Qisqa qilib aytganda, sovet tuzumining qatag'on siyosati millatning taraqqiyoti uchun qayg'urgan ziyoli qatlamni yo'q qilishga qaratilgan edi.

Сахифалари ко'п



– **Jadidlar bilan bir safda turib qatag'onga uchragan vatandoshlarimizni ko'proq o'rganish, darsliklarga kiritish yoki o'sha davr tarixi bo'yicha alohida yo'nalish ochish uchun yetarli ishlar amalga oshirildi deb o'ylaysizmi?**

– Davlatimiz rahbarining tegishli ko'rsatma hamda qarorlari bilan bu boroda juda keng ko'lamli ishlar olib borildi va davom etmoqda. Ana shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda **Jadidchilik tarixi muzeyi** tashkil etilganini alohida ta'kidlagan bo'lardim. Shuningdek, O'zbekiston Oliy sudi tomonidan **1 030 dan ziyyod** mustabid tuzum qatag'oniga uchragan vatandoshimiz nomi oqlangani tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. Yaqinda Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tgan yili "**Jadidlar. Turkistonga maktublar**" multimedia ko'rgazmasini tashkillashtirdik. Unda Turkistondan Germaniyaga o'qishga yuborilgan talabalar va ularning mintaqasi madaniy-ma'rifiy merosiga qo'shgan hissasi haqidagi qimmatli ma'lumotlar tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. "Tashkent City Mall" savdo markazidagi **1 400 kvadrat**

metrli pavilyonda jadidlarning ta'lim va maorif sohasidagi tashabbuslari keng jamoatchilikka yetkazildi. Kelajakda boshqa soha vakillari haqida ham shunday ko'rgazmalar tashkil qilish ko'zda tilig'an. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ishlar jadidchilik harakatini ko'proq o'rganishga, darsliklarga kiritish yoki o'sha davr tarixi bo'yicha alohida yo'nalish ochilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

– **Jizzax qo'zg'olonini millatimizga qarshi qatag'onnning boshlanish bosqichi desak bo'ladimi?**

– Ko'pgina tarixiy manbalarda O'zbekistondagi qatag'onlarni Stalin va uning ma'muriy-buyruqbozlik tuzumining qaror topishi bilan boshlangan deb ko'rsatiladi. Aslida millatimizga, xalqimizga nisbatan tahqir va qatag'on chor Rossiysi davridan boshlangan, desam, adashmagan bo'laman. Bunga rus rassomi Vasiliy Vershaginning asarları, xotiralari misol bo'la oladi. U tomonidan chizilgan suratlarda xalqimizga nisbatan mustamlaka davrining dastlabki dahshatlari aks etgan. Bundan tashqari, Jizzax qo'zg'olonini ham qatag'onnning dastlabki bosqichlaridan biri, desak, bo'ladı. Hali tarixchi olimlarimiz


tomonidan xalqimizga nisbatan uyushtirilgan ko'rko'rona terrorning barcha tafsilotlari yetarlichcha o'rganilib, mutaxassislar tomonidan ham, keng jamoatchilik tomonidan ham tegishli xulosalar chiqariladi.

- Oybekning "Qutlug" qon romanida Mirzakarimboy va Yo'lchi o'rtasidagi ziddiyat Yo'lchining mardikorchilikka, Birinchi jahon urushi front ortiga jo'natalishi bilan yakunlangan. Muallif bu bilan o'z o'quvchisi e'tiborini Jizzax qo'zg'oloning qaratgan. Shundan kelib chiqqan holda Oybek domlani jadid adabiyotining pinhona davomchisi deyish mumkinmi?

– Albatta. Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin hech qachon sinmaydi. Shunday ekan, Oybek domla romanda Yo'lchi obrazi orqali yuz minglab hamyurtlarimizning mardikorchilikka jo'natalishiga ishora qilishini o'sha davr uchun jasorat deyish mumkin. Muallifning nima demoqchilagini o'quvchi tomonidan anglash adabiyotning jozibalaridan biri sanaladi. Misol uchun, sovet adabiy tanqidchilari Hamza Hakimzoda Niyoziyini qanchalik sotsialistik tuzum kuychisi sifatida ko'rsatishga harakat qilmasin, shoir ijodidagi jadidlarga xos shiojat uning quyidagi misralarida haligacha jaranglab keladi:

Necha aslar uxlading yotib, Kumushday taning balchiqqa botib... (Ishchilar, uyg'on)

Keldi ochilur chog'i, O'zliging namoyon qil, Parchalab kishanlarni Har tomon parision qil... (O'zbek xotin-qizlariga)



Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston, Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston... (Yig'la, Turkiston)

- Nega unda bu asarlar maktab darsliklaridan olib tashlangan?

– Ayrimlar ta'lim sohasiga Finlyandiya, Yaponiya yoki Evropa standartlarini olib kirish orqali Amerika kashf qilayotgandek. Amerikani qayta kashf etishning nima keragi bor? Ayniqsa, davlatimiz tomonidan boy ma'naviyatimiz, tariximiz kelajak tezisi sifatida qaralayotgan bir paytda. To'g'ri, sohada islohotlar olib borilmasin demayman, ammo yoshlarimizga bugun Fitratning suratini ko'rsatishsa, Hojiboy Tojiboyevmi, deb tursa, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy kimligini bilmasa... Qaysidir zamonaviy san'atkor yoki bachkana blogerning nima yeishidan nima kiyishigacha aytib bersa-yu, jadidlar haqida so'ralganda mum tishlab qolsa. Aytmoqchimanki, ma'naviyatni, o'tmishni, buyuk ajodolarni unutmoqlig – millat uchun fojia. Ma'naviyat, shonli o'tmish bo'limgan joyda Vatanni sevish, unga sadoqat tushunchasi haqida gapiresh eshakning qulog'iiga tanbur chertishdek bo'lmaydimi? Maktablarimizda, hatto bolalar bog'chalaridagi tarbiyani birinchi galda millatimizga xos tarzda olib bormog'imiz zarur. Aks holda, jamiyatimizda katta bo'shilq paydo qilgan bo'lamic. Bunday bo'shilq bir marta mustabid tuzum tomonidan ongli ravishda amalga oshirildi. Endi buni o'zimizning qo'limiz bilan takrorlasak, tarix bizni aslo kechirmaydi. Maktab darsliklaridan siz aytgan asarlarni olib tashlagan insonlarni kim deb atashga ham hayronman.


- Qizil imperiya tomonidan "Aksilinqilobchi", "Xalq dushmani", "Vatan xoini" deb qarab keligan, aslida xalq ozodligi uchun kurashganlarni kino va teatr sahnalariga olib chiqishimizga nima to'sqinlik qilyapti deb o'ylaysiz?

– Tarixdan ma'lumki, 1917-yilda Turkiston muxtoriyati mustaqil demokratik respublika sifatida e'lon qilindi. 1918-yilning fevralida Moskva muxtoriyatni bartaraf etish uchun **Toshkentga 11 eshelon harbiylarini** jo'natgan. Tish-tirnog'igacha qurollangan armiya arman dashnoqlari yordamida ularga qarshilik ko'rsatgan mahalliy kuchlarni ayovsiz qirib tashlaydi. Bu qirg'inning asosiy voqealari Farg'ona vodiysida bo'lganini tarixiy ma'lumotlar bilan asoslash mumkin. Hamza "Yig'la, Turkiston" she'rinii Turkiston muxtoriyatining qonli qulatlishiga bag'ishlab yozgan bo'lsa, ajab emas.

Uzoq yillar sovet mafkurasi "Aksilinqilobchi", "Xalq dushmani", "Vatan xoini", "Bosmachi" degan tushunchalarni xalqimiz ongiga singdirib keldi. O'yashimcha, oramizda hali ham o'sha mafkura ta'siridan chiqqa olmayotganlar bordir. Aynan shu holat bunga to'sqinlik qilayotgan bo'lishi mumkin.

BILASIZMI, hozirgi paytda

o'zbek kinoindustriyasida asosiy e'tibor osongina mehnat bilan cassabop filmlar yaratishga qaratilgan. Seriallar esa ikki kishining dialogi orqali suratga olinmoqda. Aktyorlar kinoda qoyillatib deyarli birorta rol o'ynaganini ko'rmayapmiz. To'ylarda, bazmlarda san'atini sotib yurgan aktyor tomoshabinga ekranda haqiqiy Cho'lponni, Qodiriyni, Fitrat va Behbudiyni gavdalantirib bera oladi deb o'ylaysizmi? Rejissyor esa biror tarixiy film yoki tarixiy shaxs haqida film olishda mutaxassislar maslahatidan foydalanishi juda muhim. Olimlarning ma'lumoti va maslahati asosida Muhammad Aminbek, Shermuhammad qo'rboshi, Junaidxon, Ibrohimbek obrazlarini yaratish kerak, deb o'yayman.



- Sotsializm niqobi ostida tariximizning ko'p sahifalari soxtalashtirildi. Hozir esa ayrim mutaxassislarimiz tomonidan chalkashtirilyapti. Soxtalashtirish va chalkashtirish. Bu ikkisini bir maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan jarayon deyish mumkinmi?

– Birinchisi haqida nima demoqchiligidengizni tushundim. Tariximizning chalkashtirilayotgani deganda nimani nazarda tutyapsiz?

- Zulfiqor Musoqov ijodiga mansub "Vatan" va rejissyor Hamidulla Hasanov suratga olgan "Bir yuz bir" filmlari. Har

ikkisida ham Gollandiyaning Amersfort konslagerida tutqunda bo'lgan 101 nafar o'zbekistonlik taqdiri ko'rsatilgan. Birida o'zbek jangchilari fashistlar tomonidan tashlangan nonga talashgan sahna ko'rinishi. Ikkinchisida esa buning aksi...

– Yuqorida ta'kidlaganimdek, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriyning kimligini bilmasdan turib ular haqida film ishlash siz aytgandek holatni keltirib chiqaradi. Rejissyorning tarixni, aktyorning esa tarixiy shaxs ichki olamini bilmay turib, suratga olingen filmning muvaffaqiyatga erishgani haqida eshitmaganman. Yaqinda Qozog'istoniga kasbimiz taqozosizi bilan safarga borgandik. Bir tadbirda barcha yig'ilganlar tinmasdan bir chiroyli qiz bilan esdalikka rasmga tushardi. Yoshi katta ayollar uni bag'riga bosib, minnatdorlik bildirardi. Biror qo'shiqchi yoki taniqli shaxs bo'lsa kerak deb o'yladik. Keyin bilsak, o'sha yosh qiz, adashmasam, qozoq jadidchilik harakati Alash partiyasi yo'lboshchilaridan birining turmush o'rtog'i rolini qoyilmaqom tarzda ijo etgan aktrisa ekan...

- "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo'limlari faoliyat olib borayotgani tarixiy haqiqatning tiklanish jarayonini jadallashtirdi. Yo'qotilgan yillar bo'shilg'ini to'ldirish qanchalik mashaqqatli deb o'ylaysiz?


– Albatta, yo'qotilgan yillarni ortga qaytarib bo'lmaydi. Bu holat bo'shilqni to'ldirishdagi eng og'riqli nuqtamizdir. Bundan tashqari, o'sha yillar davomida alifbomizning bir necha marotaba arabchadan, lotinga, kirillga almashgani ham arxiv hujjalarni o'rganishimizda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaryapti. Shunga qaramay, jadidlar merosi bo'yicha Sirojiddin Ahmad, Bahodir Karim, Zaynobiddin Abdurashidov, Muslimbek Alijonov, qatag'on davri tarixchilari Rustam Shamsutdinov, Umid Bekmuhammad kabi ko'plab olimlarimiz tinimsiz izlanishlar olib bormoqda.

Keyingi to'rt-besh yilni bu jarayonning eng tezlashgan nuqtasi sifatida baholagan bo'lardim. Negaki, bu mavzuda adabiy va ilmiy kitoblar yozila boshlandi. Hatto qo'shiqlar kuylanyapti. Jadidlar va qatag'on qurbanlarni yodga oluvchi ommaviy tadbirlar muntazam o'tkazilishi yo'lga qo'yilgani quvonarli. Bularning natijasida yoshlarimiz, xalqimiz asta-sekin ular haqidagi tarixiy haqiqatni bilib olyapti. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tariximizning o'qilmagan sahifalari ko'p. O'sha sahifalarda yozilgan haqiqatni yuzaga chiqarish barchamizning Vatan oldidagi burchimiz. Bu vazifani qanchalik tez amalga oshirsak, o'tmish va kelajak tariximiz oldida yuzimiz shunchalik yorug' bo'ladi.

- Samimiy suhabat uchun rahmat.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

Harbiy ta'lif



SHARAFLI KASB EGALARI

Dunyoda shunday sharafli va mashaqqatli kasb egalari borki, ular sirasiga harbiylar va shifokorlar ham kirar ekan. Bu ikki soha vakillaridan shijoat, qanoat va asosiysi, fidoyilik talab qilinishini inobatga olsak, uning mashaqqati yana ham ravshanlashadi. Vatan posbonlari ahdi va sadoqati sabab tunni kunga ulab bo'lsa-da, ulug' ne'mat bo'lgan tinchlikni asrash yo'lida oromidan voz kechadi, kerak bo'lsa jon olib, jon beradi. Shifokorlar esa inson salomatligi posbonlaridir.

Harbiy shifokorlar haqida gap ketganda, ularni ikki karra sharafli kasb egalari, desak, mubolog'a bo'lmasa kerak. Bugungi kunda harbiy shifokorlarni tayyorlaydigan alohida ta'lim maskani ham borki, unda yaratilgan sharoitlar tahsinga sazovor.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyat akademiyasi Toshkent tibbiyat akademiyasi huzuridagi Harbiy tibbiyat fakulteti negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-oktabrdagi "Harbiy tibbiyat sohasidagi kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan edi.

Akademianing tashkil etilganiga ko'p bo'Imagan bo'lsa-da, oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri sifatida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar uchun harbiy tibbiyat sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk kadrlar yetkazib bera boshladi.

Bugungi kunda Harbiy tibbiyat akademiyasida xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or

pedagogik va innovatsion tibbiyot texnologiyalari, zamonaviy o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy metodlar keng joriy etilgan. Ta'lim oluvchilar insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalanmoqda.

Hozirgi kunda kursantlarga tibbiyot xizmatining tuzilishi va taktikasi, jangovar jarrohlik patalogiyalari, harbiy terapiya va toksikologiya, harbiy gigiyena, harbiy epidemiologiya va biologik xavfsizlik kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berilmoqda.

Akademiyada kursantlarning majburiy ikki yillik o'qishi ikki bosqichli harbiy tibbiyot o'quv dasturi asosida: birinchi yili - bakalavriat, ikkinchi yili - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun ziyor bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha harbiy internaturada tayyorlanadi.

TIBBIY O'QUV MASHQ SIMULYATSIYA MARKAZI

Simulyatsiya markazi kerakli bo'lgan tibbiy asbob-uskunalar bilan

to'liq ta'minlangan va hozirgi zamон talablari darajasida jihozlangan. Barcha toifadagi tibbiyot xodimlarining amaliy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirish maqsadida virtual simulyatsion trenajyorlari, manekenlarda tajribalarini oshirish, ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilgan. Jahondagi rivojlangan davlatlarning boy tajribalarini mutaxassislar tomonidan doimiy o'rGANilib, ular bilan xalqaro hamkorlik aloqalari keng yo'nga qo'yilgan.

KLINIK ORDINATURA

Klinik ordinaturaga tayanch oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar qabul qilinadi. Yilda bir marta amalga oshiriladigan tanlovga qo'shinlarda kamida 3 yil xizmat qilgan, harbiy xizmat davomida o'zini ijobji tomonidan ko'rsatgan, tibbiy mutaxassisliklarning biror turiga layoqati bo'lgan tibbiyot xizmati ofitserlari jalb etiladi.

Agar ularda ilmiy daraja yoki ilmiy unvon, xalqaro va respublika miqyosidagi tanlov (*musobaqa*)larda individual yo'nalishda olingan 1-o'rinn, tibbiyot sohasida yaratgan yangiliklari bo'yicha ixtiro guvohnomasi bo'lganda klinik ordinaturaga tanlovsiz qabul qilinishi nazarda tutilgan.

Mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha kvotalar Mudofaa vazirligi ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi. Qurolli Kuchlar boshqa kuch tuzilmalariga alohida kvota ajratiladi.

Boshsha vazirlik, idora va tashkilotlarning yo'llanmasi bo'yicha yoki o'z xohish-istagiga ko'ra, o'qishga talabgorlar mutaxassislik yo'nalishi

bo'yicha imtihon (*test*) sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

MAGISTRATURA TA'LIMI

Magistraturada ta'lim jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, shuningdek magistratura mutaxassisligi o'quv rejalarini va dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

Harbiy internatura yo'nalishi 1 yillik ta'limi, klinik ordinatura va magistratura yo'nalishlari 2 yillik ta'limi o'z ichiga oladi. Bugungi kunda harbiy internaturada 11 nafar tibbiyot xizmati ofitseri, klinik ordinaturada 8 nafar tibbiyot xizmati ofitseri ta'lim olmoqda.

Harbiy shifokorlarning fuqarolik yo'nalishidagi shifokorlardan farqini topishga harakat qildim. Qidirishlar natijasida topilgan va to'plangan yuuniy natijalardan shuni angladimki, harbiy shifokorlar ham jismoniy, ham psixologik jihatdan fuqarolik shifokorlardan farq qilar ekan. Harbiy shifokorlarning reallikka yaqinlashtirilgan dala-o'quv maydonlaridagi mashg'ułotlarga jalb etilishi o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'lmoxda. Shu bilan bir qatorda, jang maydonidan yaradorlarni olib chiqish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va vaziyatning og'ir-yengilligidan kelib chiqib, tez va to'g'ri qaror chiqarish kabi ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Qolaversa, Harbiy tibbiyot akademiyasi kursantlari bilan mutazazam ravishda jismoniy va jangovar tayyorgarlikning o'tkazib kelinishi, shifokorlikdan tashqari dushmandan himoyalanish uchun ham ayni muddao bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, harbiy shifokorlar yaradorning dardiga malham bo'lish bilan bir qatorda o'z jonini ham asramog'i kerak ekan.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Mualif surʼatga oʻgan

Keling, kitob o'qiyimiz!

Shaxsiy kitobxonamdag'i kitoblarimni poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Alpomish mahallasi kutubxonasiga topshirdim. Ularni berayotib, ayrimlarini qaytarib oldim. Mahalla raisi kulib:

– Bir kitobsevar inson sifatida men sizni tushunaman, – dedi.

Eski kitob yoki tarjima bisoti

Har bittasining o'ziga yarasha tarixi bo'lgan kitoblarimni qoldirayotib yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi. Aslida... Hech yengil tortganim yo'q. Bir tomondan kitoblarim ishonchli qo'llarda. Yana bir tomondan esa... o'zimni aybdordek his qildim. Kitoblarim ortimdan mung'ayib qolgandek bo'ldi. Bilmadim, asli mung'aygan kitoblar edimi yoki o'zimmi?.. Katalakdek uyimda ham joy topilar edi, qutilarga joylab qo'ysam, turardi. Ammo kitoblarning joyi ahyon-ahyonda ochiladigan, qo'l yetmas joylarda turadigan qutilarda bo'lmasligi kerak. U uyning eng ko'rinalri joyida, ko'rini turadigan, istalgan vaqtida qo'lingga olishing mumkin bo'lgan javonlarda turishi kerak-da!

Qaytarib olganim kitoblardan biri Aleksandr Sergeyevich Pushkinning tanlangan asarlari. Kitobning yoshi yetmishdan oshgan. Jigarrang muqovasida rasm, tillarang "A.S. Pushkin" deb yozilgan. O'z davrida eng mukammal holatda nashr qilingani bilinib turadi. Uni ulug' adiblarning tarjima bisotlaridan yig'ilgan bir xazina ham deyish mumkin. Negadir shu kitobni sotib olganimni eslay olmadim. Qayerdadir tashlab yuborilgan joydan olgan bo'lsam kerak. Ha, ha, esladim, Qibraydagi qaysidir maktab kutubxonasingning tashlab yuborilgan kitoblari orasidan chiqqan edi. O'g'lim ko'tarib kelgan edi. Stefan Sveygning tarixiy ocherklarini ham shunday topib olgan edim. Gap Stefan Sveyg haqida bo'limasa ham shu o'rinda o'quvchilarimizga uning ocherklarini topib o'qishni tavsiya etaman. Adib Fransiya davlat gimni "Marselyeza"ning qanday yaratilgani, uning muallifi yosh ofitserning ayancli taqdiri haqida qiziqarli ma'lumotlar bergen. Shuningdek, Kaliforniya, undagi oltin ustida qad rostlagan mashhur shahar, tuproq ustidagi oltinlar, oltin vasvasasi bilan bog'liq bir inson tarixi sizni hayratga soladi. Yozuvchi jasur sayyoq Rual Amundsen ekspeditsiyasi haqida ham yozgan.

Bu kitobni ijodkor singillarim Iqbol Qo'shshayeva yoki Nodirabegim Ibroymovaga hadya qilsammikan, deb ham o'yladim. Yana istihola qildim. Shunday kuchli ijodkor ayollarning kutubxonasida bunaqa kitoblar bisyor bo'lsa kerak.

Ijtimoiy tarmoqda bir kitobxon insonning qiziq fikrini o'qib qoldim. Uning aytishiga qaraganda, kitoblar ham eskirar ekan. Tabiiy, hamma narsa eskiradi. Faqat kitoblar... Bir narsa deyish qiyin. Chunki ayrim kitoblar eskirgani rost. Tuzumga xizmat qilgan, tuzum targ'ibotidan iborat asarlar yillar o'tib, davr o'zgarganida qiymatini yo'qotdi. Ammo eskirmaydigan asl adabiyot, asl asarlar ham mavjud-da!

O'tgan asrda rus mumtoz adabiyotidan juda ko'p tarjimalar qilingan. Bu tarjimalarga taniqli adiblar, shoirlar qo'l ular. Balki, davr taqozo etgandir, bugunlar unaqa tarjimalar susaygan, yakka-yarim ko'zga ko'rinsasa. Endi o'sha tarjimalar bir maktab, saboq kabi o'rganilayotgani ham bor gap. Shunaqa qalb qo'rini berib tarjima qilgan-da ijodkorlar! A. Pushkinning tanlangan asarlari ham bir necha ijodkorlar tomonidan o'zbek adabiy tiliga chevrilgan.

Yuqorida aytganimdek kitobning yoshi yetmishdan oshgan. Egasidan keyin tashqariga otilgani aniq. Ichidagi rasmlarga putur yetmagan. Yo'g'-eeey, sal mubolag'a qilib yubordim, unchalik putur yetmagan, desa, to'g'riroq bo'ladi. Chunki suv tekkan joylari sarg'aygan.

Rasmlarning hammasi Aleksandr Pushkinga oid. Hatto rasmlardan birining tagiga "A.S. Pushkin tobutta" deb yozilgan. Orada "A.S. Pushkin chizgan avtoportret, 1829-yil" ham bor. Qolgan rasmlar ham juda jonli, uni varaqlab ko'rsangiz, o'zingiz ham amin bo'lasiz. Biroq rasmlar muallifi ko'rsatilmagan. Balki, rassom ko'rsatilgan varaq tushib qolganmikan, deb o'yladim. Unaqaga o'xshamaydi. Chunki bir parchagina "Tuzatish" ham turibdi. "Tuzatish" – yo'l qo'yilgan imlo xatolarining qaysi bet, qator, xato va to'g'ri yozilishi ko'rsatilgan parcha qog'oz.

Avval kitobning mundarijasiga boqdim. Tarjimonlar orasida Zumratni tanimadim. Yozilishi ham xuddi so'zlashuvimizdag'i kabi Zumrat, bugun bizning ko'zlarimiz, quloqlarimiz ko'nikkal, talaffuzimiz o'rgangan Zumrad emas. Rostini aytganda, eng ko'p qiziqqanham shu inson bo'ldi. Bir necha hamkasblardan Zumratni bilish-bilmasliklarini surishtirdim. Hech kimdan qoniqarli javob olmadim. Savollarga javobni shosha-pisha internetdan qidiradigan yolg'iz men bo'lmasam kerak. U yerda ham javob yo'q. Yoki men qidirishni bilmadim.

Nega bunchalik qiziqqanimning sababi oddiy: u Izzat Sulton, Abdulla Qahhor, Mirtemir kabi katta adiblar qatorida turgan Ayol ijodkor ekani. Meni esa hamisha hamjinslarim ijodi o'ziga tortadi.

Katta avlod maktab darsliklarida Aleksandr Pushkin ijodi keng yoritilgan. Uning ijodi o'zbek adabiy tilida ham, rus tilida ham o'rgatilgan. Deyarli barcha asarlari tarjima qilingan. "Bog'chasarov favorasi"ni o'qimagan yoki eshitmagan odam bo'lmasa kerak.

Aziz o'quvchilarimizga Aleksandr Pushkin asarlari begona emas. Uning asarlari, ertaklari asosida qator filmlar ishlangan. Bu yerda u yoki bu asarini tavsiya qilish fikridan yiroqman. Aytmoqchi bo'lganim shuki, kitoblarning eskisi bo'lmas ekan.

Dunyo biladigan adib asarlarini tavsiya qilish zukko o'quvchilarimizga nisbatan nopsisandlikdek tuyular. Shunday bo'lsa-da, biz uzroxhlik bilan Pushkinning "1829-yilgi poxod chog'ida Arzrumga sayohat"ini qayta varaqlab ko'rishlarini, bilmaganlar uchun topib, mutolaa qilishlarini tavsiya qilamiz. U "Arzrumga sayohat" nomi bilan mashhur. Mazkur sayohatnomaning qimmati shundaki, diqqat bilan o'qilsa, bugungi dunyo siyosat maydonidagi taloshlar maqsadini anglash qiyin emas.

Ushbu sayohatnomaga dunyo tarixi, xususan erksevar Kavkaz, Kavkaz xalqlari tarixi bilan qiziqqanlar uchun ajoyib manba. Aziz o'quvchi, e'tiboringizni "Arzrumga sayohat"dagi mana bu parchaga qarating-a:

"U yerda, cherkaslar odati bo'yicha ularning chavandozlarini ko'milgan. Toshga o'yilgan tatarcha yozuv, qilich va tanga suratlari, yirtqich bobolardan yirtqich nabiralarga yodgor qilinib qoldirilgan.

Cherkaslar bizni yomon ko'radi. Biz ularni erkin yaylovdan siqib chiqardik; ularning ovullari xarob etilgan, butun boshliq urug'lar yo'q qilingan. Ular borgan sayin tog' ichkarilariga kirib ketmoqda va o'sha yerlardan o'z hujumlarini davom ettirmoqda. Tinch cherkaslarining do'stligi oqibatsiz: ular har doim o'zlarining janjalkash hamurug'lariga yordam berishga tayyor... Bu taraflar ularning vahshiyona ishlari haqidagi ovozalarga to'liq. Qrim tatarlari singari qurolsizlantirishdan bo'lak, ularni tinchitish usuli yo'q; buni bajarish esa ular orasida nasllar bo'yи hukm surib kelgan qirg'in va xun olish odati borligi uchun g'oyat mushkul. Xanjar va qilich ularning tan a'zosi, yosh bola ham til chiqarmasdan turib ularni egallay boshlaydi".

Umid qilamanki, mazkur parcha sizni Pushkin sayohatnomasini izlab topib o'qishga undaydi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

**Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"**



Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga



TUTASH TAQDIRLAR

Azaldan shoirlar taqdiri shohlar taqdiriga, shohlar qismati esa shoirlar qismatiga bog'lanib kelgan. Buning boisi ne? Sharqni-ku gapirmasak ham bo'ladi, G'arbda ham shunday. Xullas, tarix umr bo'yi mudom o'chakishib yoxud hamfikr bo'lib yashab o'tgan shoh-u shoirni ko'p ko'rgan. Bejiz emaski, so'z san'atining talay buyuk asarlari aynan shohlar haqida: "Shoh Edip", "Shohnoma", "Qirol Lir", "Saddi Iskandariy", "Ulug'bek xazinasi"...

O'zbek - ko'p baxtli xalq. Loaqal buyuk hukmdor - Amir Temur va buyuk shoir - Alisher Navoiyni yaratgani uchun ham. To ro'zi mahshar bu ikki aziz nom bashariyat ong-u shuuridan o'chmasligi aniq. Bu zotlarni tanigan mardum o'zbekni ham biladi.

KIMNI SOHIBQIRON DEYMIZ?

Qiziq fe'lizim bor-da! Son ming so'zni bilamiz, ehtiyojimiz uchun o'rini ishlatalamiz ham, ammo asl ma'nosi bilan ishimiz yo'q. "Nimseriy - juvonmargiy", ya'ni "Chala to'yish - yosh o'lish bilan barobar", deganlaridek, chala bilgandan bilmagan afzal. Alqissa, yozma manbalarning qayeridaki sohibqiron so'zi uchrasha, Amir Temurga ishora deb tushunishga urinib ko'ramiz-u, uning aynan nima ma'noni anglatishi va kimgarga nisbatan qo'llanishini yaxshi bilmaymiz. Akademik Bo'riboy Ahmedov mazkur atamaga mana bunday izoh beradi: **"Sohibqiron - ikki ulug' sayyora (Zuhro va Quyosh) bir-biri bilan tutashgan paytida tug'ilgan kishi, baxtiyor odam".**

Bu sifat yurt olishda baxti doim kulib boqqan, aniqrog'i, jang-u jadallarda mudom qo'li baland kelgan hukmdorlarga nisbatan ishlataligan. Sohibqiron Amir Temur bu sifatga eng munosib zot edi.

Alisher Navoiy ko'pgina asarlarida Temuriylar saltanatining so'nggi yirik shohi - Husayn Boyqaro Mirzoni ham Sultoni sohibqiron sifati bilan tilga oladiki, bunda ham so'z o'rniga tushgan. Zotan, fotihlik, harb ilmi borasida Husayn Mirzo ulug' bobosi Amir Temurga tortgan edi.

MARDLIKNI QARANGKI, Husayn Boyqaro unga nisbat berilgan sohibqiron martabasini aynan hazrat Alisher Navoiyni o'ziga loyiq ko'radi. Husayn Boyqaro qalamiga mansub "Risola" asarida mamlakat va millatning buyuk ma'naviy quvvati - Alisher Navoiy haqida quyidagi latif jumlalarni o'qiyimiz:

"Nazm iqlimida qaysi berk qo'rg'onga kuch kelturdikim, eshigi aning yuziga ochilmadi va qaysi azim kishvarg'a tab' cherigi bila turktoz soldikim, fath qilmadi. Bu kun nazm arkonining rub'i maskunida qahramon ul tururu bu mamolik fathiga Sohibqiron ani desalar bo'lur.

She'r:

*Erur so'z mulkinining kishvarsitoni,
Qayu kishvarsiton, xusravnishoni.*

*Dema xusravnishonkim, qahramoni,
Erur gar chin desang, Sohibqironi".*

Keling, endi boshqa gaplarni qo'ya turaylik-da, ikki bobomiz - Temur ham, Navoiy ham sohibqiron ekanini yodda tutaylik. Amir Temur qilich va aql kuchi bilan yurtni qo'lga oldi, mustaqil qildi. Unga ko'p hududlarni qo'shib, markazlashtirilgan yirik davlatga aylantirdi, Yer yuzining kattagina qismini o'z hukmiga bo'ysundirdi.

Alisher Navoiy qilich emas, qalam tutib, o'ziga xos "fotihlik" qildi. Shoir asarlarini faqat turkiy xalqlargina o'qiy olishini nazarda tutibmi, "Farhod va Shirin" dostonida faxr ila bunday deb yozadi:

*Olibmen taxti farmonimg'a oson,
Cherik chekmay Xitudin to Xuroson.*

Ammo bu yerda aynan Amir Temur egallagan hudud ko'zda tutilgani ham sir emas. Alisher Navoiyning "fotih"ligi hamon davom etmoqda, uning "hukm"iga kiradigan mamlakatlar soni oshgandan oshib, yil

TEMUR UA



TURONNING

sayin ko'payib bormoqda. Bugun mamlakatimizga Yer yuzining qaygo'shasidan aziz mehmon tashrif buyursa, ulug' shoirimiz haykali poyiga hurmat ramzi o'laroq gul qo'yadi.

SHIRXO'RALIK

Taqdirning o'zi Alisher oilasini Temuriylar xonadoniga bog'lab qo'yan edi. Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy o'rtasida faqat maktabdoshlik, shoh-u vazirlik, do'stlikkina emas, bevosita sut bilan o'tgan, ya'nni qon jihatidan ham yaqinlik bor edi. Navoiy Boyqaroga ko'kaltosh edi. Ko'kaltosh - o'zaro sut emishgan, ya'ni shirxo'ra degani.

Navoiy davri tarixchisi Mirxon "Ravzat us-safu" asarida Temuriylar bilan Alisher xonadoni yaqinligi uzoq tarixga ega ekanini quyidagicha qayd etadi: "...Ul oftobdillik amirning (Navoiyning) ulug' va saxovatli bobosi, avvalzamon taqozosiga ko'ra, Amir Temur Ko'ragonning o'g'li - Mirzo Umarshayx

Bahodirning xos mulozimlari qatoridan joy olib, e'tibor qalami uning bisot lavhiga ko'kaltoshlik darajasini yozgan edi". Xuddi shu fikrni Mirxonning nevarasi Xondamir "Habib us-siyar" asarida qariyb aynan takrorlaydi: "Oftob hashamatli amirning (Navoiyning) buyuk ota-bobolari qadimdan Mirzo Umarshayx Bahodir ibn Amir Temur Ko'ragon xonadonining xos kishilar jumlasidan edilar va ko'kaltoshlik qalami e'tibori bilan ularning xotir lavhiga bitilgan edi".

Umarshayx - Amir Temurning ikkinchi o'g'li edi. U aynan Mirzo Ulug'bek tug'ilgan milodiy 1394-yilning 22-mart kuni Bag'dod yaqinidagi Xuramu qal'asini qamal qilish mahalida halok bo'lgan. Bu voqeadan qariyb yarim asr keyin

NAVOIY



IKKI SOHIBQIRONI

tug'ilgan Alisher Navoiy ham otabobolari kabi Temuriylar xonadoniga ko'kaltoshlik hurmatini izchil davom ettirdi. Chunki uning otasi G'iyyosiddin Kichkina ham Temuriylar sultanatining ishonchli amirlaridan biri bo'lgan edi.

Agar ko'kaltoshlik so'zi emikdoshlik ma'nosini anglatса, demak, Navoiyning bobosi Umarshayx Mirzo bilan o'zaro sut emishgan aka-uka, ya'ni shirxo'ra edi. Taxmin qilish mumkinki, Navoiyning katta momosi – bobosining onasi Umarshayx Mirzoni chaqaloqligida emizgan. Shunday bo'lsa, Navoiy ajdodlari ham aslan mavarounnahrlik bo'lib chiqadi. Zero Navoiy dastlabki devoni – "Badoyi" ul-bidoya"ning "Debochasi"da bejiz bunday deb yozmagan:

*Otam bu ostoning xokbezi,
Onam ham bu saro bo'ston kanizi.
Xullas, amirlik Navoiyga
otamerosgina emas, bobomeros ham
edi. Buning ustiga, ko'kaltoshlik
shunchaki emas, o'ta muhim xizmat
edi. Unga xavfsizlikdek o'ta nozik
vazifa yuklatilardi.*

Xuddi shu bois ham Navoiyga ana shu buyuk sultanatga bevosita doxil bo'la turib, Amir Temur haqida yozish oson bo'lgan emas...

"AYTMOQ" – BOSHQA NARSA, "O'QIMOQ" – BOSHQA

Sharqda she'r bitish qadimdan juda ulug' sharaf hisoblangan. Navoiy "Hayrat ul-abror"da nazmning nasrdan ustunligini isbotlay turib, quyidagicha yozadi:

*Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tangri kalomida nazm.
Demak, mo'jiza maqomida, ya'ni
Qur'oni karimdaki nazm bormi,
bilingki, u – buyuk san'at.
Shuning uchun ham bobokalon
shoirimiz yashagan Temuriylar*

zamonida she'mni idrok etish va she'r bitish oliy madaniyat belgisi hisoblangan. Temuriyzodalar orasida shoirlar ko'p edi. "Majolis un-nafois" tazkirasing yettingchi majlisи aynan ana shu shoirlar haqida. Navoiy ro'yxat boshiga Amir Temurning muborak nomini bitadi. Bu ulug' hukmdorning she'riy tab'i haqida ul zot bunday yozadi: "...Agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm-u nasrni andoq xub mahal-u mavqe'da o'qiburlarkim, aningdek bir bayt o'qug'ani ming yaxshi bayt aytqoncha bor".

SHUNDAN SO'NG Amir Temurning esiga kelib qolib o'qib yuborgan bir misra voqeasi bayon qilinadi. Amir Temurning o'g'li – Mironshoh Mirzo Tabrizda ichkilikka berilib ketdi. Amir Temurga bunga uning uch nadimi, ya'ni maslahatchisi – Xoja Abdulqodir, Mavlono Kohiy va ustod Qutb Noyi sababchi ekanini aytishdi. Sohibqiron ularning boshini keltirishni buyurdi. Shunda Xoja Abdulqodir o'lim jazosidan qochib, qalandar qiyofasida yurtma-yurt kezib, jon saqlab yurdi. Bundan ba'zilar xabardor edi. Temur Iroqqa yurish qilganida bu gapni unga yetkazishdi. Sohibqiron Xoja Abdulqodirni tutib keltirishni buyurdi.

Voqeaneing davomini Navoiy quyidagicha hikoya qiladi: "Ul hazrat (Amir Temur) taxtda erdilarkim, Xojayi faqirni devonaliqqa qo'ymay, sudrab taxt illayiga kelturdilar. Andin burunkim, siyosat hukm bo'lgay, chun Xojaning kamolotidin biri Qur'on hifzi (Qur'onni to'liq yod bilish) erdi va Qur'on o'qumoq bunyod qildikim, ul hazratning (Amir Temurning) g'azabi lutfqa mubaddal bo'lub, fazl-u kamol ahli sori boqib, bu misrani ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi bim chang bar musfah zad...

Mazmuni:

Qalandar qo'rquvdan Qur'onga chang soldi.

Amir Temur g'azabga minib, uni qatl ettirishga hozir turgan bir mahalda Xoja Abdulqodir Qur'on tilovat qilib, hukmdorning g'azabi lutfga aylanishiga erishadi. Shundan so'ng sohibqiron Xoja Abdulqodirning gunohidan o'tib, unga iltifot va tarbiyatlar aylab, "Majlisida nadim va mulozim qildi".

Navoiy Temurning bir misra she'r o'qiganini, "Idrok-u fahm ahli bilurkim, yillar, balki qarnlarda (asrlarda) mundoq latif so'z voqe' bo'lmas", deya ta'riflaydi.

BU YERDA ASOSIY GAP Navoiyning o'qug'an bilan aytqan so'zlarini bir-biridan ajratib qo'llayotganida. Ba'zilar shu nozik lisoniy farqni inobatga olmay, Temur o'qigan misrani badiha yo'li bilan to'qilgan she'riy satr deb tushuntiryapti ham. Holbuki, Navoiy tilida o'qimoq faqat birovning (!) she'rin yoddan aytmoqni, aytmoq esa o'zi she'r to'qimoqni bildiradi.

Navoiy bu o'rinda Amir Temurni boshqa birovning she'riy hayotiy voqeaga juda mos tarzda ishlatgani uchun ta'riflagan.

QILICH VA QALAM

Qilich bilan zabit etilgan hududlarning taqdir daftariiga abadiylik muhri bosilgan emas. Shuning uchun bo'lsa kerakki, shoirlar qalam bilan mulk olish ishqida yonadi. Qaysi mamlakatni hukm-u farmoniga kiritmoqchi bo'lsa, Navoiy o'sha yurtga lashkari she'r bo'lgan devonini yuborgan:

*Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabitig'a bir devon yibordim.*

*Bu devonkim, tutti kishvarni andoq, –
Ki devon tuzmagay daftarni andoq.*

Qilich va qalam...

SULTONI SOHIBQIRON Amir Temur Turon yurtini jahoning markazlaridan biriga aylantirgan edi. Shunday buyuk turkiy sultanatga yarasha shunday buyuk turkiy adabiyot dunyoga kelmagandi. Alisher Navoiy ana shu hayotiy ehtiyojning mevasi yanglig' tug'ildi. Temur o'zbekni jahon siyosatining yuksak sahnasiga olib chiqqan bo'lsa, Navoiy millat ma'naviyatini ana shunday ulug' pog'onaga ko'tarib qo'ydi.

*Navoiy qalamida Temur qilichining kuchi bo'lsa, ne ajab?!
Navoiy qalami Temur qilichi bilan yo'nilgan bo'lsa-chi?!*

**Sultonmurod OLIM,
adabiyotshunos**



Chegara qo'shinlarida



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanining qo'shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarida o'z xizmat vazifasini bajarayotgan chegarachilar va ularning oila a'zolari uchun zamonaviy uslubda qurilib, barcha qulayliklarga ega bo'lgan xizmat xonadonlarini foydalanishga topshirish jarayonida ham ayni shu xususda so'z yuritilib, harbiylarga ko'rsatilayotgan e'tibor – yurt osoyishtaligiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning namunasi sifatida e'tirof etildi.

Ohangaron tumani hokimligi, DXX Chegara qo'shinlar mas'ullari, faxriyalar, Shovg'oz mahalla fuqarolari hamda jamoatchilik tashkilotlari vakillari ishtirot etgan mazkur tadbir davomida, zamonaviy talablar asosida ko'rkam, yorug', barcha qulayliklarga ega xonadonlarning barpo etilishida jonbozlik ko'rsatgan quruvchilarga minnatdorlik bildirilgach, binoning ramziy kaliti tantanalni tarzda Chegarani qo'riqlash vzvodi komandiriga topshirildi. Shundan so'ng sarhadlarimiz posbonlari o'z xonadonlarining kalitini katta quvonch bilan qabul qilib oldilar.

- Bizning Shovg'oz qishlog'imiz chegara hududida joylashgan bo'lib, hududimizdag'i Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism jamoasi Vatanimiz sarhadlarini

YUKSAK E'TIBOR NAMUNASI

qo'riqlash bilan birga, qishlog'imiz hayotida ham faol ishtirot etib, hamkorlikda tinchlikni qadrlash va asrab-avaylashga qaratilgan ko'plab tadbirlarni tashkillashtirib turamiz. Bugun posbonlarimizga topshirilayotgan yangi xonadonlarni va bu yerda yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, juda ham xursand bo'ldik, – deydi mahalla faoli Shavkat Yormatov.

Shu kabi orzular ro'yobini viloyatning Toshkent tumanida qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarni qo'riqlayotgan sarhadlarimiz

posbonlari ham his etish baxtiga tuyassar bo'ldi. Yangi xizmat xonadonlarini o'z sohiblariga topshirish marosimi bu yerda ham katta tantanaga aylanib ketdi.

Tadbirda Toshkent tumani hokimligi vakillari, harbiylar va ularning yaqinlari hamda Navoiy mahalla fuqarolari faollari ishtirot etdi.

Unda so'z organlar tinchlikdek bebablo ne'matning qadriga yetish va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kerakligini, har bir fuqaro, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod Vatan osoyishtaligini ta'minlashni o'zining muqaddas burchi deb bilishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Shundan so'ng o'z taqdirini yurt taqdiri bilan bog'lagan, mashaqqatli va shu bilan birga sharafli kasbda faoliyat olib borayotgan chegarachi o'g'lolnarga kuch-g'ayrat hamda matonat tilagan holda, yangi xonadonlar kaliti topshirildi.

- Bu kunlarni intiqib kutganimiz sababli, hozir quvonchim ichimga sig'mayapti. Baxtiyor onlarimizni bo'lishish uchun kelgan ota-onalarimiz, yaqinlarimiz ham bunday sharoitlarni ko'rib, bizdan ko'ngillari xotirjam bo'ldi. Endi men va men kabi harbiy oila bekalari uy-joyimizdan bexavotir holda turmush o'rtog'imizning yonida kamarbasta bo'lib, ularni yurt himoyasiga yo'llaymiz, – deydi Risolat Abdulhakimova.

Shu kuni mehmonlar yangi uylarda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklар bilan yaqindan tanishish imkoniga ham ega bo'ldi.

Albatta, ko'rsatilayotgan bu kabi g'amxo'rlik harbiylar, ularning oila a'zolari va yaqinlariga cheksiz quvonch ulashib, yangi-yangi marralar sari ruhlantirishi, shubhasiz.

**Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlar**



Jadid adabiyoti



Abdulla Qodiriyning haqiqatlari



Ma'rifatparvar jadidlar nomi
tilga olinganda, birinchilar qatori
xayolimizga bolaligimizdan qadrdon
bir nom – Abdulla Qodiriy siyomisi
ko'z oldimizda gavdalanadi. Axir
uning asarlarini o'qimagan, "O'tkan
kunlar", "Mehrobdan chayon"ni
bilmaydigan o'zbek bormikan?! Xo'sh,
ushbu asarlarning umrboqiyligi,
shunchalar qadrli va qadrdonligi
nimada? Nega ular shunchalar
kitobxon qalbini zabit etdi? Nega xalq
Kumushni mehr-vafo va go'zallik
timsoli deb ulug'ladi? Nega Otabel
va Kumush, Anvar va Ra'no o'zbek
yoshlarining sevgi timsoliga aylandi,
tillarda doston bo'ldi? Ularga
havaslanib, qanchadan qancha
farzandlarimiz ismi Otabel, Anvar,
Kumush, Ra'no bo'ldi...

Keling, shu o'rinda yillar o'tsa-
da, qimmatini yo'qotmagan Qodiriy
asarlarining asl yozilish tarixiga
nazar solsak, ularning mukammallik
sirlaridan boxabar bo'lsak. Buning
asoslarini moziyga qaytib, tarix
zarvaraqlarida muhrlangan qaydlar
orqali yozuvchining o'zidan so'rasak.

kelmasligini surishtirib
ishlataman.

Yozuvchi bo'laman
degan har bir kishi o'zida
mana shunday, turmushning
mayda-chuydalarigacha
kuzata oladigan qobiliyatni
o'stirishi kerak.

Yozuvchining o'zidan
qo'shishi adabiy asarda
katta rol o'ynaydi. Lekin
men turmushda ko'rmagan,
bilmagan narsam haqida
hech narsa yozmayman. Har
bir asarimning yozilishiga
turmushda uchragan bivor
voqeab sababchi bo'ladi.
Shuning natijasida men
o'zimcha asarimning taxminiy
bir sxemasini tuzib olib, keyin
ishga tushaman".

YOZUVCHINING BIRLAMCHI FAZILATI

"SO'Z SO'ZLASHDA
va ulardan jumla tuzishda
uzoq andisha kerak.
Yozuvchining o'ziga
tushunib, boshqalarning
tushunmasligi katta ayb.
Asli, yozuvchilik, aytmoqchi
bo'lgan fikrni hammaga
barobar anglata bilishda,
oraga anglashilmovchilik
solmaslikdir. Bundan
boshqa fikrning ifodasi
xizmatiga yaramagan so'z
va jumjalarga yozuvda aslo
o'rin berilmasligi kerak.
Shundagina iboraning tuzatib
bosilishiga yo'l qo'yagan
va mustaqil uslub va ifodaga
ega bo'lib, o'zingizning
qalamdag'i istiqbolingizni
ta'min qilgan bo'larsiz.
Kishiga ishonish va behuda
kuchanish ma'qul gap emas,
birovga orqa qilib, o'zingda
bo'lgan talanting ruhiga
fotilha o'qiy ko'rmangiz! Bir
soatda emas, o'n soatda yozish,
bir qayta emas, o'n qayta
tuzatish kishining yordamiga
termilishga qaraganda ham
foydatli, ham unumlidir".

Men bir asarni yozishdan
avval shu yozmoqchi bo'lgan
narsam haqidagi materiallarni
puxta o'rganib chiqaman.
Men biror joy to'g'risida asar
yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni
avval necha marotaba ko'rgan
bo'lsam-da, yana borib tekshirib,
yaxshiroq o'rganib kelaman.

Meteriallarni o'rganish
mahalida eng mayda narsalarga
(detallarga) ham ahamiyat
beraman. Masalan, men haligi
o'rganmoqchi bo'lgan yerda
qancha daraxt borligi, ularning
qanchasi eski va qanchasi
yangiligi, men borgan mahalda
qanday qushlar qaysi xilda qo'nib
turganligi va shunga o'xshash
juda mayda narsalargacha.
Ularni shu asarning xuddi
shu joyida tasvir etilayotgan
ahvolga ideyaga to'g'ri kelish-

O'TKAN KUNLAR

"Yozmoqg'a niyatlanganim
ushbu "O'tkan kunlar" yangi
zamon ro'monchiligi bilan
tanishish yo'lida kichkina
bir tajriba, yana to'g'risi,
bir havasdir. Ma'lumki, har
bir ishning yangi – ibtidoiy
davrida talay kamchiliklar
bilan maydonga chiqishi,
ahllaring yetishmaklari
ila sekin-sekin tuzalib,
takomilga yuz tutishi tabiiy
bir holdir. Mana shuning

daldasida havasimda jasorat
etdim, havaskorlik orqasida
kechaturgan qusur va xatolardan
cho'chib turmadim.

"O'TKAN KUNLAR"ni
yozar ekanman, doimo ko'z
o'ngimda o'quvchi ommamiz
turar edi. Men bu kitobim
bilan xalqimiz rag'batini
biroz bo'lsa ham yangilikka
tortmay, der edim. Shuning
uchunkim, hatto bir faslni
tamom tashlab o'tar ekanman
"falon holni bundan so'nggi
fasllarning birida o'qirsiz" kabi
so'z bilan o'quvchiga ta'minot
berib qo'yishgacha majburiyat
sezar edi. Modomiki, asar
saviyasi o'zimizga ma'lum
shu xalq uchun yozilar ekan,
yana bir mucha vaqt "so'nggi
priyem"lardan ko'z yumib turish,
oraliqda "so'nggi priyem"ni oz
ozdan qistira borish lozimdir. Na
uchunkim, "so'nggi priyem"da
yozilgan she'r va nasrlarimiz
bir tabaqagagina xos bo'lib qola
bergani da'vomizga dalildir.

Moziyga qaytib ish ko'rish
– xayrli, deydilar. Shunga ko'ra,
mavzuni moziydan, yaqin o'tgan
kunlardan, tariximizning eng
kirli, qora kunlari bo'lg'an
keyingi "xon zamoni" dan
belgiladim. Men bu so'nggi
marg'ub qahramonlarni o'zbek
tarixinning hazmi ko'targan qadar
o'z holicha olishqa tirishdim.
Ularining xon va ulamoga qarshi
isyoni tabiiy shar'iydir. Chunki
shundan ortig'i soxta bo'lishi
ustiga kitobning qadrini ham
tushur edi".

(*Abdulla Qodiriy. Kichik asarlar. "O'tgan kunlar tanqidi ustida ba'zi izohlar" Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti. 1969.*)

Ushbu qaydlarni o'qir
ekan man, yuqorida q
savollarimga javob topganday
bo'ldim. Mana, Qodiriy
asarlarining umrboqiyligi siri?
Voqelikning mutlaq hayotiy
va haqqoniyligi, sodda va
samimiyligi, milliyligi, hikoya
uslubining ertakmonandligi,
uning uzviy tizimli sahnasi,
tasavvurning aniqligi (*Zero
asarni mutolaa qilar ekansiz,
uning syujeti shundoqqina ko'z
oldingizda namoyon bo'ladi*).
Eng muhimmi, yozuvchini
xalqning aynan dilidagi gaplarni
hikoya qilishi, asarning real
voqeliklarga asoslanganligi,
uning sodda va ravon tili,
ushbu adabiy durdonani oltin
merosimizning shoh asariga
aylantirdi.

Hamonki, asarning
umrboqiyligi haqidagi oddiy
haqiqat ham shudir aslida.

SAN'ATDA HAM METIN

San'at – aniq g'oyalar targ'iboti, tarixdan xabar, insoniy saboq, tarbiyaning ajib, ta'sirchan usuli. Unda benazir go'zallik, qaytmas xotiralar, xayoliy orzu-istak hamda umid mujassam.

Aytish joiz bo'lsa, san'at tinimsiz mehnat, izlanishlar samarasi hamdir. Zotan, san'atning bir parchasiga aylanish – har bir ijodkor uchun katta baxt. Biroq bunga erishish, o'zlashtirishning o'ziga yarasha mas'uliyati va mashaqqati bor. U xoh xonanda bo'lsin, xoh aktyor yoki raqqosa – xalqqa eng sara ijod namunalarini taqdim etishi lozim.

A m m o h a m m a
san'atkordan ham ushbu mas'uliyatni to'laligicha his etolgani yo'q. Ayniqsa, aytish kerak ekan, deb nima to'g'ri kelsa shuni qo'shiq qilayotgan xonandalarning borligi, asrlar chig'irig'ida sayqal topib bizgacha yetib kelgan san'atimizga sezilarli darajada putur yetkazayotgandek, go'yo. Eng yomoni, urf-odatlarimizga mos bo'lman, qadriyat, an'analarimizga zid g'oyalarni targ'ib etayotgan qo'shiqlar va unga olinayotgan ma'no-mazmunsiz, beo'xshov kliplar Yangi O'zbekistonni barpo etishdek olyi maqsad yo'lida qo'lni-qo'lga berib, birlashgan xalqimizni, ayniqsa yoshlarni chalg'itayotgandek, nazarimizda.

Munisa Rizayeva kuylagan "Aka-makasi" nomli qo'shiqning videoklipi e'tiborimizni tortdi. Ushbu klip qaysidir qishloqda tasvirga olingan. Xonanda ochiqchasiaga Yevropadagi hamkasblari ga taqlid qilgani yaqqol sezilib turibdi. G'alati, mentalitetimizga zid bo'lgan harakatlar va gap-so'zlar ensangizni qotirs, kutilmaganda paydo bo'lgan bolaga ota qizining qo'lini tutqazib, to'y qilib berishi hayratingizni oshiradi.

Qo'shiqning matni esa ko'ngilni xira qiladi:

*...Holimni so'rab ko'r,
Bir nimalar, deb o'rab ko'r.
Atti-batti o'tta-bo'tta,
Yo'q so'zni aytma albatta.*

Xo'sh, Munisa nima demoqchi o'zi? Bu so'zlar hattoki o'zbek tilining imlo lug'atida ham topilmaydi. Xonanda yangi so'zlarni o'ylab topgan ko'rindi. Ashulaning keyingi so'zi esa avvalgisidan ham oshib tushadi:



*Manga bitta bola rosa qaravotti,
Qosh-ko'zini yomon qoqvotti.
Aka-maka makasi kim desam,
Mani yomon o'rab tashavotti.
Votti-votti, votti-votti...*

NAHOTKI, o'zbekning boy san'ati shu ko'rinishga, achinarli ahvolga kelib qolgan bo'lsa? Qolaversa, buni qo'shiq deb atash mumkinmi? Nahot ayrim xonandalar zamonaviy estradani shunday tasavvur etishyapti? Yana bir san'atkor – Jahongir Otajonovning "Poram" nomli qo'shig'iqa olingan videoklip ham millat taqdiriga

befarq bo'lman har bir kishi qalbini larzaga soladi, bee'tibor qoldirmaydi.

*...Insonlarni pirlaydi, xasta etib yerlaydi,
Lyuboyini kirlaydi pulim-pulim.
Janim mening dollarlarim, yevrolar,
Poram-poram, ram-pam-pam-pam...*

(qo'shiqda keltirilgan so'zlarni boricha, o'zgartirmay yozdik).

Mulohaza qilib ko'ring, biror ma'nnaviy yuki bormi bu so'zlarning?! Xonanda she'r aslida qanday bo'lishini unutganmi yoki u shu oldi-qochdi gaplarni she'r deb, ijod qilib yuribdimi? Qisqasi, bugun salohiyati, iste'dodi bori ham, yo'g'i ham qo'shiq aytganidan keyin mana shunday ashulalar yaratiladi. San'atda esa metin tartib bo'lishi kerak. Ana shunda tarozi bosadigan, eshitib rohat oladigan qo'shiqlar paydo bo'ladi. Aslida muxlislarga shunday haqiqiy qo'shiq kerak.

klipga bor e'tiborni qaratishdan avval, yaxshi she'r tanlashni o'rganish zarur. Qo'shiqchilarning topib olgan gapi: "she'r yo'q". Shuncha shoirlarimizning yozgani nima unda? Aslida she'rga ham estetik did bilan qaray bilish lozim.

TA'KIDLASH KERAKKI, bugun san'atkordan biri "endi manga gitara", deb kuylasa, boshqasi "o' mani baliqcham, o' mani mushukcham, o' mani quyoncham" deb qichqiryapti. Yana biri "Lada-lada-lada", deb ikki qator jumlanli qayta-qayta takrorlaydi. "Mol boqsak ham nima qilibdi endi bizga, yoz bo'lmasa, kuzda aniq uylanaman", deya ashula aytayotganlari ham chiqib kelyapti. Xullas, his-tuyg'usiz, dardsiz, biri ikkinchisini takrorlaydigan, tuzsiz, mohiyatsiz ashulalar ketdi. Dovdaraxtlar, chorvachilik, poliz ekinlari, qir-u adirlar mavzu sifatida bugun kuya solinmoqda. Ammo qalbga yaqin, insonning ruhiga ozuqa beradigan, maroq

bilan tinglanadigan, xalqimizning shonli o'tmishi-yu bugunini kuylash unutilmoqda. Nega bunday bo'lyapti? Ehtimol, talabga yarasha taklif shudir? Chunki oldi-qochdi so'zlar jamlanmasidan vujudga kelayotgan bu qo'shiqlarni tinglashga allaqachon o'rganib, odatlanib bo'lgandirmiz? Agar shunday bo'lmaniganida bu kabi yengil-yelpi ijod namunalari e'tiborimizga sira ham havola etilmas, katta-katta sahnalarda baralla kuylanmas, millionlab tomoshabinlarga ega davlat va nodavlat telekanallar orqali uzzukun efirga berilmasdi.

– Efirga berilayotgan har bir klip, avvalo telekanal ijodiy-badiiy kengashi nazoratidan o'tkaziladi, – deydi "Mening yurtim" telekanali bosh muharriri Dilshod Mamatturdiyev. – Ko'rikka taqdil etilgan har bir musiqiy audiovizual asarning birinchi galda mualliflik nuqtayi nazaridan tegishliligi o'rganiladi. So'ngra ijod mahsulining o'zbek adabiy me'yorlariga muvoifiqligi, badiiy saviyasi, g'oyaviy mazmuni, dolzarbli, milliy manfaatlарimiz va ma'nnaviyatimizga mosligi tahlil etiladi.

Yoshlar odob-axloqiga salbiy ta'sir qiladigan, ma'nnaviy-axloqiy mezonzalarga zid bo'lgan mediumahsulotlar tabiiyki, efirga qo'yilishiga ruxsat berilmaydi. Chunki bizning bosh maqsadimiz – ko'p sonli tomoshabinlarga birdek manzur bo'ladigan asarlarni saralab, taqdim etishdan iborat.

Aksariyat xonandalar qo'shiqlariga matni bugun o'zları yozishi, hatto, musiqasini ham bastalayotgani barchamizga yaxshi ma'lum. Xo'p, ijod ahli bo'lganidan keyin yozadi-da, dersiz. Biz ham bu ishni jon, deb ma'qullaymiz. Imkonim bormi, qo'lidan keladimi, salohiyati yetadimi, unda qaddini ursin.



TARTIB BO'LISHI KERAK?

Boisi ayrim san'atkorlar borki, ular ashula ham aytadi va she'rni ham o'zlarini yozib, kuyuni bastalaydi. Bu esa haqiqiy professionallik deyiladi. Biroq keraksiz so'zlardan gap yasab, ohang berilgan, xalqimiz e'tiboriga taqdirm etilayotgan allanimalar ming yil o'tsa ham qo'shiq sifatida qabul qilinmaydi, tez unutiladi. Qadr topmaydi.

- Ijtimoiy tarmoqlardagi bir video diqqatimni tortdi, - deydi aktyor Erkin Bozorov. - Otaxon aytayapti: 1966-yilda Toshkentda yuz bergan yer silkinishiga guvoh bo'lganmiz. O'sha kuni yer qa'ridan chiqib kelgan tovush qalblarimizni muzlatib yuborgan. Buni eslashning o'zi dahshatli. Ammo bugun yaratilayotgan "darang-durung, qasir-qusur"lar ana shu og'riqlarimizni qayta his etishimizga sabab bo'lmoqda. Iltimos qilib qolamanki, mayin kuylar yarating! Qulogqa xush yoqsin. Qalbga orom bersin. Chunki baland ohangda aytilayotgan ashulalar yuraklarimizga qattiq ozor yetkazyapti, vahima qaytyapti, deya nadomat qiladi. Demak, xalqimiz ham bugungi qo'shiqlardan mammun emas. Ularni-da azoblanishiga, qalb uylarining vayron bo'lishiga sababchi bo'layotgan ekan-da, faqat ohangga zo'r berayotganlar.

QO'SHIQ UMRINI SO'Z UZAYTIRADI. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak? Buning uchun avvalo asosi qo'shiqchilarimiz tahsil olayotgan konservatoriya bo'lg'usi san'atkorlar uchun adabiyot darsini kiritish kerak, nazarimda. Ana shunda bama'ni qo'shiqchilar soni ko'payarmidi, deyman-da. Bir narsa aniq, kitobga, adabiyotga muxlis bo'lgan kishi, kam bo'lmaydi. Lekin bu qo'shiqchi degan zot borki, keyingi vaqtarda kitob o'qimay qo'ydi. Shoirdan uzoqlashgan sari san'atkorlar san'atdan ham uzilib bormoqda. Shoirlar bo'lganki, qo'shiqn, qo'shiqchini tarixda qoldira olgan, muhrlagan. Hatto musiqalar she'rغا qarab bastalangan. Bilingki, "oltin qoida" doim muqim qolaveradi - har qanday qo'shiqning umrini avvalo so'z - she'r belgilaydi. Meni juda ko'p kliplarga taklif qilishadi, avvalo buning uchun katta rahmat. Biroq xonandaning so'zlariga e'tibor bersam, yengil, yuki yo'q. Hissiz va mazmunsiz. Nega bunday, deb so'rasam, zamonaviy, deydi. Joyida rad etaman. So'z bilan ishlamayaptimi, demak, u uzoqqa bormaydi. Hamon uzoqda yuraman ana shunday dardsiz qo'shig'-u kliplardan.

Yoshlarning qalbida mardlik va jasorat tuyg'ularini yuksaltirish, vatanzarvarlik hislarini singdirishda, ayniqsa madaniyat va san'at ahlining yozuvchi va shoirlarning o'rni muhim. Zotan, tinchlik hammamizga kerak. Demak, Vatanni himoya qilish barchamizning muqaddas burchimizdir. Axir Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur". Biroq hozirgi qo'shiqlarda bu qay darajada o'z aksini topmoqda?

- Avvalo, har kim o'zi xohlagan va yoqtirgan xonandaning qo'shiqlarini tinglashga haqli, - deydi Dilnoza Ma'rufboyeva. - Chunki bu uning tanlovi, ixtiyor o'zida. Ammo shu foydali bo'lsa,

tafakkurni o'tmaslashishga emas, aksincha charxashga xizmat qilsa, bu boshqa gap. Mana, masalan, san'atimizda shunday ulug' darg'alar borki, ular yaratib, kuyga solgan ashulalar hali-hamon xalqimizga manzur bo'lib keladi, maroq bilan tinglanadi. Xususan, Murodjon Ahmadovning "O'rtar", Sherali Jo'rayevning "O'zbegim", yoki bo'lmasa, Hojiakbar Hamidovning "Ketmoqdamon", Ortiq Otajonovning "Umr o'tar", Rustam G'oyipovning "Jamalak", Mahmud Namozovning "Ko'k bo'ri" va Xurshid Rasulovning "Yoshligim" kabilar shular jumlasidan. Ta'kidlash kerakki, men bu qo'shiqlarni eshitsam, o'zimni o'zga olamga tushib qolgandek his etaman. Ruhim

boshqa jihatlarini ham o'xshatishga urinadi. Ba'zida buning uddasidan ham chiqadi. Avvalo, bu uning o'sha xonandaga chin muxlis bo'lgani uchun deyish mumkin. Aytmoqchi bo'lganim san'atkor - u aktyor-aktrisa yoki xonanda bo'lsin barchasi o'zining ortidan xalqni, ayniqsa yoshlarni ergashtirapti. Demak, ular yaratadigan har bir ijod mahsuli, avvalo, jamiyatga, odamlarga foydasi tegishi kerak. Biroq ayrim san'atkorlar tomonidan kuyga solinayotgan mavzularda aytilayotgan qo'shiqlarda na ma'no bor va na mazmun, tarbiyaviy ahamiyatini aytmasa ham bo'ladi. Lekin unutmaslik kerakki, ijodkorning yaratgan namunasiga qarab, uning didi, saviyasi, bilimi, intellektual salohiyatiga baho beriladi.

- Ayniqsa, san'atkorlar ko'p kitob o'qishi kerak, - deydi jurnalist O'g'iloy Muhammadiyeva.

- Chunki ular so'z bilan ishlaydi. Ortidan xalqni, ayniqsa

o'zini qay darajada oqlayapti? Albatta, o'z maqsadi yo'lida, sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan san'atkor ham borki, ular xalqimizga sof, an'analariga mos ijod namunalarini tortiq etayotgani, biroz bo'lsa-da kishining ko'nglini xotirjam qiladi.

- Qo'shiqqa matn tanlash o'ta muhim masala, ammo unga ishlanayotgan videokliplar ham kishi qalbining og'rishi sabab bo'lmoqda, - deydi jurnalist Shahzoda Abdullayeva. - Chunki ba'zi xonandalarning kliplarda nuqul qishloqdagi odamlar sodda ko'rsatiladi. Ayniqsa, yoshlari to'pori, bachkana, bekorchi, bemaqsad yashayotgandek namoyish etiladi. Usti-boshining rasvosi chiqib ketgan, loysuvoq uyda, chakki o'tayotgan tom ostida kun o'tkazayotgan odamlar tasvirlanadi. Shaharliklar bo'lsa, to'kin hayotda, yevropacha, o'zga dunyoda yashayotgandek qilib ko'rsatiladi. Bu esa haqiqiylikka mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, bu bilan qishloq va shaharliklar o'rtaсидagi tafovutni haddan tashqari bo'rttirishga urinayotgandek ko'rindi, nazarimda. Yana bir gap: er-

xotin bir-biriga xiyonat qilgan, do'stlarning vafosizligi va sotqinligi, besamar umrlar, mol-dunyoga ruju qo'yish... xullas, sanasangiz, sanog'i yo'q bularning. Axir erkinlik degani san'atni shahvatga, adabiyotni jaholatga aylantirish, degani emas. Nahotki, bu masalalarga jiddiy qaraydigan, professional

yoki havaskor san'atkor bo'ladi barchasiga to'g'ri yo'l ko'rsatib, aniq qoyalar targ'ibotchisiga aylanishlari uchun ko'maklashadiganlar bo'lmasa? Yo'qsa, qusur va kamchiliklarimiz yanada ko'payadi, natijada shundog'am jar yoqasiga kelib qolgan milliy san'atimiz rivoj topish orniga pasta qulaydi.

Maqolani yozish davomida, MAVZUGA OID AYRIM SAVOLLARGA O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining mas'ul xodimlaridan javob olish uchun vazirlikning saytida ko'rsatilgan bir qancha raqamlarga sim qoqdik. Ammo ko'p bor urinishlarimiz besamar ketdi. Har safar telefondagi maxsus "xonim" suhbatingiz yozib olinadi, dedi-yu biroq biz izlagan vakillarga "ulab" berolmadi. Mayli, ularning ishi, vazifasi ko'p. Shunga bizning chaqiruvlarimizga e'tibor qilmagandir, deb qo'yaqoldik.

SO'NGGI SO'Z o'rnida shuni aytish kerakki, san'atning mislsiz go'zalliklarini muxlislarga taqdirm etish bilan bir qatorda, san'atkor degan sharafli nomga dog' tushirmay yurish har bir san'at ahlining asosisi vazifasi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "San'atkor odobi, yurish-turishi, kiyinish madaniyati, muomalasi bilan boshqalarga, eng avvalo, yoshlarimizga o'rnak bo'lishi zarur". Bundan boshqacha bo'lishi esa aslo mumkin emas.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



yengillashadi. To'g'ri, bu ashulalarni hali-hamon yashab kelayotgani uning she'rlari yuksak darajada yozilgani, haqiqiy ijod namunasi ekanlidigidir. Yana ohang va she'r o'zaro uyg'unlashtirilgan. Ming afsuslar bo'lsinki, bugun ayrim san'atkorlarimiz aytish kerak ekan, deb nima to'g'ri kelsa, shuni kuylashmoqda. San'atkor chin dildan ijod qilib, xalqqa, muxlislarga ma'qul keladigan asar yaratishga harakat qilish kerak. Ana shunda qadr topadi, hurmat qozonadi.

San'at ahli millat peshvosi, yoshlar tarbiyachisi, kattalarga suhabbatdosh, kichiklarga mayoq bo'lishi lozim. Ularga taqlid qilinadi. Shunday ekan, bugun yoshlarimiz o'zlarini yaxshi ko'rgan san'atkorlarni kuzatib, ulardan nimani o'rgannoqda va nimani olyapti?

- Bir tanishim bor. U san'atkorlardan biriga qattiq taqlid qiladi, - deydi talaba Oq'abek Mahmarayimov. - Hatto shu xonanda qo'shiqlariga olgan klipda kiygan kiyimi, soch turmag'i, o'zini tutishi va

yoshlarni ergashtiradi. Lekin hozirgi xonandalarning nimani kuylayapti, nimani targ'ib etyapti? Bu savollar har birimizni qattiq o'ylantirishi kerak. Bugun internet butun dunyoni egalladi. Undan har kim har xil maqsadlar yo'lida foydalanmoqda. Ana shunday tahlikali, axboriy xurujlar avj olgan bir vaqtda san'at ahli tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy ruh singdirilgan, kishining o'zligini anglashga xizmat qiladigan qo'shiqlarni yaratishi kerak emasmi? Azal-azaldan xalq ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bildirib kelgan. Ularga nisbatan, hatto jamiyat tafakkurining egalari, degan yuksak baho ham bergen. Lekin bu ishonch bugun

Aiplar safidagi ayollar

Bir xilqatki unda nurni anglaysiz,
Ona degan baxt, sururni anglaysiz,
El-u yurtning ori uning qo'lida,
Vatan degan sha'n, g'ururni anglaysiz,
To'maris vorisi o'zbek ayoli.

III darajali serjant Shohida Gapporova bilan bundan ikki yil avval suhbatlashib, maqola tayyorlagandim. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismida aloqa seksiyasi katta mexanigi vazifasida xizmat qilayotgan Shohida 2023-yilda ham bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Ya'ni lavhamiz qahramoni "Dovyurak jangchi" ko'krak nishoni hamda sportning armrestling yo'nalishida o'tkazilgan Osiyo championatida g'oliblikni qo'lg'a kiritgan. 2024-yilda esa sportning taekvondo yo'nalishi bo'yicha bo'lib o'tgan jahon championatida birinchi o'ringa egalik qildi. Shuningdek, 2025-yilning ilk oyida u "To'maris" ko'krak nishoni sohibi bo'ldi.

OMAD KALITI MAQSAD VA INTILISHDA

Albatta, muvaffaqiyatlar zamirida bilim, iqtidor, izlanish va intilish yotadi. Shohida Gapporovaning erishgan yutuglari ham bejiz emas. Yetti yoshidan karate to'garagiga borgan o't-olov qizgina, yillar o'tib, orzu-maqsadi sari dadil intilgani bois 2004-yilda Vatan himoyachilarini safiga qo'shildi. Uning kasbiga bo'lgan muhabbatni, qat'iyat, shijoat va bilimdonligi omadiga yo'l ochdi. Sharafli kasbi hamda sportda, ya'ni armiya o'yinlarida g'oliblar safida bo'ldi.

2014-yili armiya o'yinlariga qo'l kuchini sinash - armrestling kiritildi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining jismoniy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik Sanjar Ganjakov armrestling yo'nalishidagi bellashuvlarga Gapporovani eng yaxshi nomzod deb bildi. U yanglishmagandi. Bir oy tayyorgarlik ko'rgan Shohida 2014-yili Mudofaa vazirligi hamda Madaniyat va sport vazirligi hamkorligida o'tkazilgan O'zbekiston championatida ellikdan ziyod nomzodni ortda qoldirib, g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

2016-yili O'zbekiston championatida ishtirot etayotgan vazirliklari safi kengaydi. Shohida Gapporova 2016-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlari, Mudofaa, Sog'liqni saqlash, Madaniyat va sport, Xalq ta'limi, Moliya, Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari hamda Chegara qo'shinlari va Bojxona qo'mitasi o'rtaida o'tkazilgan O'zbekiston championatida ishtirot etdi. Xizmat vazifasiga mas'uliyat ila yondashadigan Shohida bellashuvlarga har gal o'ziga bo'lgan ishonch, tinimsiz harakat va tayyorgarlik bilan yuzlanardi. 176 nafar olovqalb, bilagi kuchli sportchini yengish oson emasdi. Ammobilning ortga chekinmas qahramonimiz buni

uddaladi. 2016-2018-yillarda armrestling yo'nalishida championatning mutlaq g'olibi bo'ldi. 2020-yili "Harbiy sportchi" ko'krak nishoniga munosib topildi.

JAHON SPORTCHILARI SAFIDA

2023-yilning noyabr oyida Samarqand shahrida sportning armrestling yo'nalishida Osiyo championati o'tkazilishi belgilandi. O'zbekiston armrestling sport klubi a'zosi bo'lgan Shohida Gapporovani qo'mondonlikning jismoniy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i



TO'MARISING CHEMPTION QIZI

podpolkovnik Jamshid Murodov mana shu nufuzli tanlovga tayyorladi. O'n kilodan yigirma besh kilogacha bo'lgan toshlarda qo'lni, jismoniy mashqlar orqali tanani chiniqtirgan, sog'lig'iga, kaloriyalı oziq-ovqatlarga e'tibor qaratgan qahramonimiz 21 ta davlatdan qatnashgan sportchilar safidan joy egalladi.

Har bir davlatdan ellikka yaqin sportchi ishtirot etayotganini inobatga oladigan bo'lsak, Osiyo championatida birinchi bor qatnashayotgan Shohida uchun bu juda katta sinov edi. Ikkinci tomoni uning raqibalari asosan ko'p bor jahon championi bo'lgan sportchilar.

Championatga start berildi, murosasiz bellashuvlar boshlandi. Qahramonimiz raqibalarini birin-ketin mag'lubiyatga uchrata boshladi. Championat so'ngida u mutlaq g'olib deya e'lon qilindi. Yevropa davlatlaridan tashrif buyurgan sudyalar hayratda: "Bunday bo'lishi mumkin emas. Osiyo o'yinlarida birinchi bor qatnashayotgan ayol qanday qilib jahon championlarini yenga oladi. U qayta sinovdan o'tishi kerak!" Sudyalar e'tirozi qondirildi, ayol sportchilarni mag'lub etgan Shohidaga armrestlingda jahon championi bo'lgan hindistonlik va eronlik ikki sportchi erkak

raqib bo'ldi. U sudyalar ko'z o'ngida erkaklarni mag'lub etib, g'olibligini isbotladi va 2024-yilda bo'lib o'tadigan jahon championatiga yo'llanma oldi.

YANA BIR G'OLIBLIK SHOHSUPASI

Ma'lum sabablarga ko'ra, Shohida Gapporovaga 2024-yilda belgilangan jahon championatiga qatnashish nasib etmadidi. Biroq uni sportning boshqa yo'nalishida bo'lib o'tadigan jahon championati kutmoqda edi. Ubuni qo'yidagicha izohlab o'tdi:

- Sportchilar championatga ham ruhan, ham jismonan tayyorlanadi. Bu borada ustozlarning o'rni muhim. 2024-yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan taekvondo yo'nalishidagi jahon championati hayotimda muhim iz qoldirdi. Negaki ushbu yo'nalishda ham o'z imkoniyatimni sinab ko'rdim.

To'rt karra jahon championi, sport ustasi Azizbek Madumarov menga ustozlik qildi. To'g'risi, bu championatda ishtirot etaman, deb o'ylamagandim. Aslida, o'g'lim Ozodbekni taekvondo klubni rahbari Azizbekka shogird qilib bergandim. O'g'lim qatnashayotgan musobaqalarga borib, unga raqibini yengish borasida maslahatlar berib turardim. Mendagi ma'lum

tajribani sezgan Azizbek, yurtimizda bo'lib o'tadigan jahon championatida klub nomidan ishtirot etish maslahati bilan chiqdi va tayyorladi. Championatda dunyoning 17 ta davlatidan 200 dan ziyod sportchilar ishtirot etdi. Men Xitoy, Yaponiya, Avstraliya, Vengriya davlatidan kelgan vakillar bilan maydonga tushdim va g'olib bo'ldim. Yurtimiz bayrog'ini ko'tarish men uchun sharaf. Harbiy xizmatchilar safida ekanim esa faxrimdir. Joriy yilning ilk oyi ham men uchun omadli keldi. "To'maris" ko'krak nishoniga munosib topildim. Bu yutuqlarimning barchasida harbiy xizmatda va sportda menga tayanch bo'lgan komandirlarim, ustozlarim va safdoshlarimning ulkan hissasi bor. Ularga chin yurakdan ta'zim qilaman.

Birinchi o'rinni qo'lg'a kiritib, g'oliblik shohsupasiga chiqish qay darajada sururla va sharafli. Buni g'olib bo'lgan insongina teran his qiladi. III darajali serjant Shohida Gapporovani 2025-yilda yana bir katta sinov kutmoqda. U Vengriya davlatida armrestling yo'nalishida bo'lib o'tadigan jahon championatida ishtirot etadi. Ishonamizki, u bu safar ham g'oliblar safida bo'ladi, albatta.

Ayol qaysi sohada, qaysi lavozimda xizmat qilmasin, u

onaligi bilan aziz-u mukarramdir. Uning baxtini farzandlari haqida so'z ketganda chehrasidagi quvonchdan anglash mumkin. Shohida Vatan himoyachilarini safida bo'lishdek mas'uliyatli vazifa bilan birga, uch farzandni mehr ila voyaga yetkazayotgan jonfido onalardan. Ichki ishlar akademiyasida tahsil olgan katta o'g'li Abdulatif kiberxavfsizlik yo'nalishida tergovchi bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, taekvondo yo'nalishida qora belbog' sohibi bo'lgan Ozodbekning maqsadlari ulkan. Besinchili sinf o'quvchisi Gulsanamning orzusi esa shifokor bo'lish. U onasi xizmatdan horib kelganida har gal mehribonchilik ko'rsatib, charchog'ini oladi. Farzandlarning yuksak orzu-niyatda voyaga yetishida, shubhasiz, ota-onaning o'rni katta. Bu borada alplar safidagi champion qahramonimizni, jonkuyar va mehribon ona, desak, arziydi.

Samimi suhbatdosh, kamtar III darajali serjant Shohida Gapporovaning xizmatdagi va hayotdagi jonkuyarligi, fidoyiligi borasida uzoq so'z yuritish mumkin. Zero u kabi To'maris momo vorisi bo'lgan millat ayollarini qancha ta'rif etsak shuncha kam.

**Zulfiya YUNUSSOVA,
"Vatanparvar"**

Sport

JISMONIY KAMOLOT SARI

Kishi qaysi sohada faoliyat yuritmasin, u o'z kasbining ustasi bo'lishi uchun tinmay izlanadi. Maqsadiga erishish yo'lida uchragan to'siqni matonat bilan yengib o'tadi. Alaloqibat zafar quchadi. Mutal Nazarov ham bugun tanlagan sohasidan baraka topganlardan. Jahon kubogi sovindori bo'lgan Nazarov shinkiokushinkay karate sport turi bo'yicha V Dan qora belbog' sohibi.



- Jismoniy kamolotga sport bilan erishiladi, - deydi O'zbekiston Respublikasi shinkiokushinkay karate markazi rahbari Mutal Nazarov.

- Chunki sportning har qanday turi bilan shug'ullanish, avvalo insonning irodasini mustahkamlaydi.

O'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Jahon championatlarida ishtirot etib, sovindorlar qatoridan joy oldim. Shogirdlarimga ham xuddi shuni o'rgatishga harakat qilib kelyapman. Murabbiylar Akmaljon Abdurazzoqov va Rohat Samandarov bilan birligida ushbu sport turini mamlakatimizda yanada rivojlanish uchun izlanishlar olib boryapmiz. Bugungi kunda respublikamizning sakkizta viloyatida markazning filiallarini ochdi. Buning natijasida minglab yoshlar sportning mazkur turi bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mudofaa vazirligi

Oliy sport natijalarini rivojlanish markazi bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz.

M a q s a d i m i z - armiyamiz saflaridagi Vatan o'g'lonlarining karate bo'yicha bilimlarini yanada oshirish va ular bilan o'zaro tajriba almashishdan iborat.

Jahon, Yevropa, Osiyo, Afrika championati, xalqaro musobaqa lar, shunningdek

O'zbekiston championatlarida ketma-ket g'alaba qozonib kelgan Nazarov bugun 30 yildan ortiq vaqt davomida to'plagan tajribalarini sportga oshno yoshlarni tarbiyalashga safarbar etib kelmoqda.

U joriy yilning may oyida Yaponiyada bo'lib o'tadigan navbatdagi jahon championatiga shogirdlari Muhammad Ali Nazarov va Ozodbek Abduraufov bilan birligida tayyorgarlik ko'ryapti.


- Ustozimga shogird bo'lib kelganimga 3 yil bo'ldi, - deydi Ozodbek Abduraufov. - Shu vaqt oralig'ida ko'plab nufuzli musobaqlarda ishtirot etdim. Ayrimlarida g'alaba qozondim, boshqasida tajriba to'pladim. Yutqazgan kezlarim ham bo'ldi. Biroq o'shanday kezlarda ustozim menga dalda beradi. Yana oyoqqa turishim uchun qo'llaydi. Xullas, karatening ushbu yo'naliishi sirlarini chuqr o'rganib kelyapman. Maqsadim - jahon championi bo'lish va Vatanim bayrog'ini baland ko'tarish. Bu yo'lida hamisha izlanaman va o'rganaman.

Bugun o'zbek sportchilarining mahorati va matonatiga dunyo ahli lol qolyapti. Albatta, bu mamlakatimizda sportga qaratilayotgan e'tiborning amaliy natijasidir. Mutal Nazarov va uning shogirdlari ham ana shu yo'lda, ya'ni jahon arenalarida davlatimiz sha'nini munosib himoya qilish uchun bor kuch va salohiyatlarini safarbar etib kelmoqda.

Sh. SAIDOV

Texnologiya

Bugungi kunda insoniyat IV sanoat revolyutsiyasi davrida yashamoqda va bu davr shu qadar jadallik bilan rivojlanib boryaptiki, zamonaviy texnologiyalarni sun'iy intellektsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Oddiy yoritish chirog'idan tortib, kosmosga uchirilayotgan sun'iy yo'ldoshlarda inson tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni sun'iy intellekt bajarayotganini ko'rish mumkin. Bu holat, o'z navbatida, mehnat bozorining transformatsiyalashuvini, xodimlarning esa kasbiga innovatsion hamda kreativ yondashuvini talab etayotgani hammaga ma'lum.



KUZATUV KAMERALARIDA SUN'IY INTELLEKT

Endilikda elektr chirog'ini yoqish uchun qandaydir qurilmani bosish shart emas. Chunki ko'chalarda, xona va binolarda odam harakati orqali ishlaydigan yoritish moslamalari ko'payib bormoqda. Yoki bo'limasa, mashina boshqarayotganingizda kimdir sizga yo'l ko'rsatishi shart emas. Sun'iy intellekt asosidagi zamonaviy GPS tizimi belgilangan manzilgacha olib bora oladi. Xavfsizlik kameralari orqali esa ma'lum hududdagi sharoitni tahlil qilish, insonning yuz tuzilishi va harakatlar nazorati, anomal hamda tabiiy hodisalarni oldindan kuzatish kabi ishlarni amalga oshirilmoqda. Sanab o'tilgan omillardan kelib chiqqan holda, sun'iy intellekt tizimini harbiy sohaga ham jadal kirib kelgan deyish mumkin. Chunki inson tajribasi va sun'iy intellekt imkoniyatlari birlashib, real holatda - kun, hafta, oy yoki butun yil davomida xavfsizlikni

ta'minlovchi yangicha standartlar ko'rinishida shakllanib kelyapti. Sun'iy intellekt xavfsizlikni ta'minlashning ajralmas qismi bo'lishiga qaramay, kamchiliklardan xoli emas. Yuqori samaradorligi va turli xavflarni bartaraf etishdagi qulayligiga qaramay, kiberhujumlarga dosh berish darajasi past. Shuning uchun shaxsiy ma'lumotlar bazasiga noqonuniy kirish ehtimoli juda yuqoriligi sababli sun'iy intellektidan ham aqliroq xakkerlar xatti-harakati tez-tez kuzatilib turibdi. Bundan tashqari, mutaxassislar kelajakda sun'iy intellekt insoniyatni barcha jabhalarda ortda qoldirishi eng katta xavf ekanini taxmin qilmoqda. Agarda shunday bo'lgan taqdirda, uni nazorat qilish tizimi izdan chiqadi va tizim qandaydir g'araz niyatli shaxslarning qo'liga o'tib qolishi mumkin.

Kuzatuv kameralari faoliyatiga nazar tashlaydigan

bo'lsak, bu texnologiyani ishlab chiqaruvchilar ayrim dasturlar inson imkoniyatidan yuqori samara bilan ishlayotganini e'tirof etadi. Misol uchun, "Hikvision" kompaniyasi tomonidan yaratilgan Deep Learning dasturi yuzni tanib olish va tasvirni tahlil qilish bo'yicha qisqa vaqt ichida yetarli ma'lumotlarni to'play oladi. Aynan mana shu ikki jihat jangovar qorovul postida turgan harbiy xizmatchilarining vazifasini ancha yengillashtirishi bilan birga, katta hududda kuzatiladigan yolg'on harakatlarga ortiqcha vaqt sarflash ehtimolini deyarli yo'qotadi. Deep Learning texnologiyasi neyron tizimining kichraytirilgan nusxasi hisoblanib, ma'lumotlarni ko'p bosqichli, ma'lum harakatlarga asoslangan holda tahlil qilish imkoniyatiga ega.


Yuqorida har bir sun'iy intellektli qurilmalarga kiberhujum uyushtirish ehtimoli ko'p ekani haqida to'xtalib o'tdik. Bu texnologiya yaratuvchilari hozirgi paytda ana shu muammolarni bartaraf etish borasida izlanishlar olib bormoqda. Dunyoning boshqa davlatlarida bo'lganidek, O'zbekistonda ham sun'iy intellektli kuzatuv kameralaridan keng foydalishin yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizga bunday moslamalarning yangi yangi turlari kirib kelmoqda va mutaxassislarimiz sun'iy intellektli kuzatuv kameralarini mahalliy sharoitga moslashtirish, har qanday kiberhujum va josuslik urinishlariga chidamli dasturlar ishlab chiqish borasida ilmiy taddiqotlar olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi olimlari bu borada yetarli tajribaga

ega bo'lib ulgurgani e'tiborga molik. Bundan tashqari, akademiyada har yili "Obyektlarni qo'riqlash va mudofaa qilishda qo'llaniladigan zamonaviy muhandis-teknik qo'riqlash vositalarining o'rnini va roli" mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konferensiya o'tkazib kelinadi.

Xalqaro hamkorlik doirasida bu kabi konferensiyalarda Belarus Respublikasi harbiy akademiyasi, Rossiya Federatsiyasining "Umirs", Xitoy Xalq Respublikasining "Hikvision" kompaniyalari bilan birligida mavzuga oid dolzarb muammolar bo'yicha tajriba almashish yo'lga qo'yilgan.

**Jasur RAHMATOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
IV kafedrasi katta o'qituvchisi**

Xavfsiz turizm



Xorazm viloyati IIB xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarini jinoyatdan xoli hududga aylantirish, xorijiy va mahalliy sayyoohlarni xavfsizligini ta'minlash borasida samarali ishlarni amalga oshirmoqda.

Xiva shahri o'tgan 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti", deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan ushbu ko'hna zaminda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning mas'ul rahbarlari ishtirokida ko'plab xalqaro anjumanlar, festival va uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli tadbirlarni tinch va osoyishta o'tkazish maqsadida viloyat IIB xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi hamda manfaatdor tashkilotlar hamkorligida reja-dastur ishlab chiqilib, bu boradagi ishlarni samarali tashkil etildi. Natijada viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarning sayohati, dam olishi, madaniy hordiq chiqarishi, eng muhimmi xavfsizligi to'la ta'minlanishiga erishdi.

O'tgan yil sarhisobiga ko'ra, viloyatimizga 1 mln.dan ortiq mahalliy hamda xorijiy sayyoohlarni tashrif buyurdi. Shundan 20 mingdan ortiq sayyoohlarni masalalarda yordam so'rab, boshqarmamiz xodiimlariga murojaat qilgan va bu so'rovlar qisqa fursatda ijobjiy hal etilgan. Ispaniyalik Xulio va italyalik Aminaning sumkalarini, fransiyalik Lilining "Iphone 14", AQShlik Jonning "Iphone 16 Pro Max", ruminiyalik Fransonning "Samsung"

rusumli uyali aloqa telefonlari, germaniyalik Marta va yaponiyalik Fuyukining bank plastik kartalari, fransiyalik Julyetta hamda italyalik Valerinoning fuqarolik pasportlari boshqarma xodimlariga qilingan murojaatlari asosida topilib, o'z egalariga qaytarildi. Sayyoohlarni xodimlariga minnatdorlik bildirdi.

Viloyatdagi turizm namoyishi obyektlari hududlarida "Qovun sayli", "Anor hosili" festivallari, "Lazgi", "Etnosport" xalqaro festivallari, "Xalqaro turizm yarmarkasi", "Pahlavon Mahmud - Bahodirlar o'yini" va boshqa shu kabi 40 dan ortiq tadbir bo'lib o'tdi. Yuqori saviyada tashkil etilgan mazkur tadbirlarda xorijiy va mahalliy ishtirokchilar ham qatnashdi. Ularning belgilangan tadbirlarni samarali o'tkazishi, boy madaniy merosimiz bilan yaqindan tanishishi, sayohat davomida dam olishi va mazmunli hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi hamda xavfsizligini ta'minlandi.

Turizm namoyishi obyektlari va unga tutash hududlarda sayyoohlarga nisbatan huquqbazarliklar sodir etilishining barvaqt olish maqsadida ko'plab profilaktik

tadbirlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida 520 nafardan ziyod fuqaro rasmii tarzda ogohlantirilib, huquqbazarlik sodir etgan 770 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomaga rasmiylashtirildi. Shuningdek, belgilangan hududlardagi o'rganishlar natijasida madaniy meros obyektlarida sayyoohlarga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlanib, ularni bartaraf qilish maqsadida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga 34 ta taklif va 27 ta taqdimnomaga yuborildi. Ularning 35 tasi xavfsizlikni ta'minlash, 15 tasi qo'shimcha qulayliklar yaratish, 11 tasi esa yong'in hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratildi.

Viloyat hududida xavfsiz turizmni ta'minlashda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ham alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, kuzatuv kameralari hududni tun-u kun nazorat qilish imkonini berishi bilan bir qatorda jinoyat va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida fosh qilish hamda qidiruvdag'i shaxslarni ushlashda muhim ahamiyatga

egadir. Shu bois boshqarma ma'muriy binosidagi "Vaziyatlar markazi"ga viloyatdagi turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlaridagi hamda boshqa aholi gavjum joylardagi 600 dan ortiq videokuzatuv kamerasi integratsiya qilindi.

Joriy yilda ham bu boradagi ishlarni yanada yaxshilash maqsadida qo'shimcha ravishda shaxsning yuzini va transport vositalarining davlat raqami belgililarini aniqlovchi yana 1 000 dan ortiq intellektual videokuzatuv kameralarini o'rnatish va "Vaziyatlar markazi"ga integratsiya qilish rejalashtirildi.

Xullas, viloyat ichki ishlarni boshqarmasining tegishli sohaviy xizmatlari hamda mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan chora-tadbirlari natijasida o'tgan 2024-yil davomida viloyatimizda sayyoohlarga nisbatan jinoyat hamda huquqbazarliklar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Sabohat SULTANOVA,
Korazm viloyati IIB xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimi

Davra suhbati

Mustahkam oila – yurt tayanchi

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va ayol harbiy xizmatchilar bilan tizimli ravishda amaliy ishlarni olib borilmoqda.



Toshkent shahrida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism ma'daniyat saroyida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va ayol harbiy xizmatchilarini ishtirokida o'tkazilgan "Harbiy xizmatchilar o'rtasida oilaviy munosabatlari, farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni" mavzusidagi davra suhbati shunday egzu ishlarning mantiqiy davomidir.

Harbiy xizmatchilarning oilalari o'rtasida millatimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlarini, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oila a'zolari o'rtasida oila madaniyati va odobi, oilada er-xotinlik munosabatlari, kamol topayotgan farzandlarning tarbiyasini to'g'ri yo'lda qo'yish, har tomonlama komil harbiy xizmatchi oilasini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbirda taniqli psixologlar, ma'rifat targ'ibotchilari hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari

agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash institutining mutasaddilari ishtirok etdi.

Videokonferens-aloqa orqali barcha qo'shilma va harbiy qismlarga uzatilgan davra suhbati davomida mutaxassislar oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lishiда ota-onaning roli, komil farzandlar tarbiyasida onaning – ayol kishining zimmasidagi mas'uliyat xususida so'zlashdi. Shuningdek, global mashhuv sharoitida

oilalardagi o'zgarishlar va muammolar, psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasiga oid zamonaliv qarashlar va milliy an'alar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, tibbiy, huquqiy, axloqiy va ma'naviy aspektlariga doir qimmatli ma'lumotlar keltirildi.

Samimi hamda do'stona ruhda o'tgan tadbir taassurotlarga boy bo'ldi. Muhimi, unda ishtirok etgan ayol-qizlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldi.

Shahnoza SULTANOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Amaliy tadbirlar



Yangi qonunlar mohiyati

mohiyati xususida so'z bordi. Suhbat davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi.

Tadbir viloyat kuch tuzilmalari hamkorligida Baxmal tumanining chegaraoldi hududidagi Mo'g'ol, Oyqor va Novqa mahallalari yoshlari ishtirokida tashkil etilgan vatanparvarlik tadbiri bilan davom etdi. Qatnashchilar harbiy aslahalar ko'rgazmasi va harbiy xizmatchilarining qo'ljangi chiqishlaridan katta taassurot oldi.

Jarayonda turli sport musobaqalari o'tkazilib, g'oliblarga esdalik sovg'alar topshirildi.

**Adliya polkovnigi
Sherzod XAYITOVA,
Jizzax harbiy prokurori**

Jizzax harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qismalarning birida o'rghanish olib borildi.

Unda yong'in qutqaruv va boshqa maxsus texnikalar, tezkor harakatlanish guruhlari shayligi, harbiy xizmatni o'tash sharoitlari va boshqa masalalarga e'tibor qaratildi. Jarayon boshqa bir harbiy qismidagi ochiq muloqotga ulanib ketdi.

Tadbirda huquqbazarlik tushunchasi, tasnifi, javobgarlik asoslari va jazo turlari, shu bilan birga, yangi qonun hujjatlari

So'ragan edingiz



Huquqiy maslahat

Qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor creditor oldida solidar javob beradi, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa.

Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil creditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlari to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli creditor ko'rgan boshqa zararlarni to'laydi.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, birqalashib kafil bo'lgan shaxslar creditor oldida solidar javob beradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati**

Ijro nazorati

Faoliyat o'rGANILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Xorazm viloyatida o'rGANISHLAR olib borildi.

Xususan, Tuproqqa'l'a tumani mudofaa ishlari bo'limida navbatdagi chaqiruv mavsumiga tayyorgarlik, chaqiriluvchilar bilan ishslash va mavjud sharoitlar o'rGANIDI.

Viloyatdagi qator harbiy qismalarda harbiy xizmatni o'tash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yashash uchun yaratilgan sharoitlar va sohaga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Urganch shahri qo'riqlash bo'limida faoliyat natijalari, tezkor axborot almashuvi hamda maxsus texnika va aslahalar shayligiga ahamiyat berildi.

Jarayonlarda hududdagi qurilish-ta'mirlash ishlari ahvoli va foydalanishga topshirilgan yangi obyektlar bilan tanishildi.

Shuningdek, o'rGANISHLAR davomida qishki mavsumda energotejamkorlikni ta'minlash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, bundan tashqari, huquqbazarliklarning oldini olish, bunda harbiy xizmatchilar va xodimlarning faoliyi masalalariga urg'u berildi.

O'rGANISHLARDA mas'ullarga tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Adliya mayori Maxim ARTIKOV,
Respublika Harbiy prokuraturasi
bo'lim katta harbiy prokurori**

Sayyor qabul

Murojaatlar ijobiy hal etildi

Xalq bilan bevosa muloqot muammolarni o'rGANISH va tezkor hal etish borasida muhim omillardan biridir.



Bu boroda Bosh prokuror o'rINBOSARI - O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlig va idoralari mas'ullari hamkorligida mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazilmoqda.

Ularning galadagisi Xorazm viloyatining Tuproqqa'l'a tumanida tashkil etildi.

Unda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini va xodimlari, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda kelib tushgan jami 40 ta murojaatdan 14 tasi joyida ijobiy hal etildi, 14 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 12 tasi nazoratga olindi.

**Adliya podpolkovnigi
Gulchehraxon TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Islohot



Yangi uylar topshirildi

Mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning uy-joy ta'minoti borasidagi huquqlarini amalda ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu borada barcha qo'shin turlarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinchilari harbiy xizmatchilari uchun barpo etilgan zamonaviy turarjoy majmuasidan yangi xonardonlarni o'z egalariga topshirish marosimi ham ushu yo'nalishdagi tadbirlarning hayotiy davomi bo'ldi.

Tantanada tuman hokimligi, Chegara qo'shinchilari qo'mondonligi, Toshkent harbiy prokuraturasi, qator mutasaddi tashkilotlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

So'z olganlar harbiy oilalarini yangi uylar bilan qutlab, ezgu tilaklarini izhor etdi.

**Adliya mayori Olimjon HAYDAROV,
Toshkent harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Hokim kubogi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tomonidan yoshlar o'rtasida pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha viloyat hokimi kubogi uchun birinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.



Yosh merganlar bellashdi



Tashkilotning Namangan shahri o'quv sport-teknika klubiga qarashli o'q otish majmuasida tashkil etilgan musobaqada viloyatning tuman va shaharlaridan tashrif buyurgan 103 nafar sportchi bellashdi.

Shiddatli, shu bilan birga, do'stona ruhda o'tgan kubok musobaqasi viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi jamoasining g'alabasi bilan yakunlandi. Ikkinci o'rinnamangan shahri o'quv sport-teknika klubi jamoasiga, uchinchi o'rinnamangan shahri o'quv sport-teknika klubi jamoasiga nasib etdi.

G'oliblik va yuqori o'rirlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va medallari bilan taqdirlandi.

**O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

KLUB A'ZOLARINING MUNOSIB HISSASI



**Yosh avlodni har tomonlama
barkamol qilib voyaga
yetkazish, o'g'il-qizlarimiz
qalbida yaratuvchanlik hamda
bunyodkorlik, shu bilan
bir qatorda, ularda Vatan
taqdiriga daxldorlik hissini
shakllantirish har jihatdan
ustuvor ahamiyat kasb etadigan
masalalardandir. Xususan,
O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkilotining
Qashqadaryo viloyati kengashi
tasarrufidagi Chiroqchi tumani
o'quv sport-teknika klubini
jamoasi ham bugungi kunda
ayni maqsadga xizmat qiluvchi
chora-tadbirlarning izchil
ijrosini ta'minlashga hissa
qo'shmoqda.**

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa albatta yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarni bugungi kun talabi asosida tashkil etishdir. Shu tufayli bunday ishlarni ko'lamenti oshirish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borilmoqda.

- Bu yo'nalishdagi ishlarni, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida yanada samarali bo'ldi, - deydi O'STK boshlig'i Faxriddin Umirov. - Chunonchi, ushbu muhim sanaga bag'ishlangan "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxril" shiori ostida hamkor tashkilotlar ko'magida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari ham shular jumlasidandir. Albatta, bunda yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish muhim jarayonlardan biridir.

Masalan, tumanimizda 3-, 4-umumta'limga maktablarining yuqori sinf o'quvchilari va klub a'zolari ishtirokida o'q otish musobaqasi tashkil etildi. Tadbir yakunida, albatta, mohir merganlar musobaqa tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga "Vatanparvar" tashkilotining faoliyati, uning yo'nalishlar haqida ma'lumot berildi. Tadbirda yoshlar o'zlarini qiziqitirgan barcha savollariga batafsil javob oldi.

Kezi kelganda, ta'kidlash joizki, tashkilotda shu kunnalarda haydovchilar tayyorlash borasida ham ko'pgina ishlarni qilinmoqda. Xususan, o'quv mashg'ulot xonalari yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kerakli va zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Shu kunnalarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE", "D" toifalari haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga




ham muhim e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda klub qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" va "Duatlon" kabi seksiyalarda 50 nafar iqtidorli yosh mutazam shug'ullanmoqda. O'z navbatida, klub a'zolari tashkilot nufuzining yuksalishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda.

Akbar ALLAMURODOV



**"A", "B", "BC", "BE", "CE", "D"
toifalarga marhamat!**

Ushbu takliflar faqat bizda. Tanlovda
adashmang va aldanib qolmang!



Mahsulotlar sertifikatlari
qo'shmoqda.

Murojaat uchun telefonlar:
90 675 33 79 99 551 34 02
91 814 44 14 90 341 67 36

Salomatlik

Metapnevmovirus kasalligi yuqumli virusli infeksiya bo'lib, havotomchi yo'li bilan yuqadi. Virusning faol aylanishi asosan kuz-qish mavsumida kuzatiladi.




Mazkur virus bilan xastalanish holatlari har yili dunyoning barcha mintaqalarida qayd etiladi.



METAPNEVMOVIRUS

— yangi turdag'i virus emas!



Ommaviy axborot vositalarining xabarlariga ko'ra, Xitoyning shimalida joylashgan hudud aholisi orasida 2024-yilning dekabr oyidan boshlab, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda keksa yoshlilar orasida metapnevmovirus kasalligi bilan kasallanish holatlari ko'paygani ta'kidlangan. Shu bilan bir qatorda, grippning A turi va rinoavirus, mikoplasmali pnevmoniya hamda koronavirus tarqalayotgani ma'lum qilingan. Yosh bolalarning yoppasiga kasallanishi tufayli mahalliy shifoxonalarga bo'lgan yuklamaning oshgani kuzatilgan.

Respublikamizda metapnevmovirus birinchi marta 2001-yilda aniqlangan bo'lib, har yili o'tkir respirator infeksiyalar orasida uning salmog'i 1,2 foizni, Qozog'istonda 1,6 foizni, Rossiya Federatsiyasida 0,1 foizni tashkil etidi. Odatda, kasallik yengil o'tadi va undan keyin asoratlar bo'lmaydi.

O'zbekistonda ham ayni vaqtida aholi orasida o'tkir respirator infeksiyalarning mavsumiy ko'tarilishi kuzatilmogda. Respublikamizda respirator infeksiyalarning laboratoriya tekshiruvlari muntazam amalga oshirilmogda. Ana shunday tekshiruvlarning so'nggi natijalariga ko'ra, 36,9 foizida gripp virusi, 30,2 foizida rinoavirus, 28,6 foizida respirator-sinsitinal virus, 1,2 foizida metapnevmovirus va 3,1 foizida boshqa viruslar aniqlangan.

Harbiy xizmatchilarining doimiy mahalliy aholi bilan bevosita muloqoti natijasida, kasallik ular orasida ham kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga,

bugungi kunda qo'shinlarda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirdirlarga qaramasdan, shaxs tarkib orasida havotomchi orgali yuquvchi infeksiyalar bilan kasallanish darajasi boshqa yuqumli kasalliklar orasida dolzarbigini saqlab qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, barcha yuqumli kasallanishlarni jamlaganda, o'tkir respirator infeksiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichi ulardan yuqori ekani aniqlangan.

Metapnevmovirus yuqqandan keyin uning birinchi klinik belgilari paydo bo'lgunga qadar bo'lgan vaqt, ya'ni kasallikning yashirin davri uch kundan besh kungachani tashkil etidi. Odatda, kasallik burun oqishi, yo'tal va isitma kabi belgilari bilan o'tkir respiratorli infeksiyalar shaklida namoyon bo'ladi, lekin ba'zi hollarda chaqaloqlar, keksa yoshlilar hamda immuniteti past bo'lganlar orasida bronxiolit va zotiljamni keltirib chiqarishi mumkin.

Metapnevmovirus kasalligini keltirib chiqaruvchi omillarga tananing sovgotishi, bemor bilan muloqotda bo'lish va immun tizimi faolligining pasayishi sabab bo'ladi.



Kasallikning o'tkir boshlanishi, odatda qisqa muddat davom etishi, kataral o'zgarishlar (*yo'tal, tomoq qizarishi, ko'z qizarishi*), tana haroratining ko'tarilishi va intoksikatsiya (*tanuning mikroblar ta'sirida zaharlanishi*) ushbu kasallikning asosiy xususiyatlaridir.

Kasallik manbai bemor odam hisoblanadi va u yo'talganda, aksirganda kasallik chaqiruvchi virus, nafas yo'li ajratmalari bilan tashqi muhitga chiqadi. Kasallik sog' odamga havo-tomchi orgali yuqadi. Kasallik yuqqandan so'ng bemorda badan uvushishi, umumiy darmonsizlik, bo'g'lnarning zirqirab og'rishi, tana haroratining ko'tarilishi, yo'tal va tumov belgilari paydo bo'ladi. Ayrim bemorlarda kasallik belgilarsiz kechishi mumkin. Bu xil bemorlar atrofdagilar uchun xavfli hisoblanib, infeksiyaning tez tarqalishiga va ko'plab kishilarning kasallanishiga sabab bo'lishi mumkin. Inson organizmining kasallikka qarshi kurashish xususiyati uning yoshi, jismoniy chinig'ani, turmush tarzi va vaqtida ovqatlanishi bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash lozimki, metapnevmovirus va boshqa o'tkir respirator kasalliklar bilan og'riganda,

antibiotiklar kasallikni davolash uchun samara bermaydi, balki kasallik keltirib chiqargan asoratlarni davolash uchun qo'llanishi mumkin. Ko'proq bemorga choy, na'matak damlamasi hamda har xil meva sharbatlarini ichirish va xonani tez-tez shamollatish kasallikdan tez qutulishga yordam beradi. Bemor bilan muloqotda bo'lganda niqob taqish va jamoat joylarida ijtimoiy masofani saqlash kasallik yuqishining oldini oladi.

Hozirgi kunda metapnevmovirus va boshqa o'tkir respirator kasalliklar bilan kurashishda hali sezilarli muvaffaqiyatga erishilgani yo'q. Bemorni boshqalardan alohidalashning o'zi epidemiyaga qarshi chora sifatida o'zini oqlamayapti. Bunga sabab bemorlarning kech murojaat qilishdir, yana bir sababi kasallikni "oyoqda" o'tkazadigan bemorlarning ko'pligidir. Kasallik uyushgan jamoalarda tez tarqalish xususiyatiga ega, chunki sovuq kunlarda yopiq binolarda o'tkaziladigan darslar, majlislar va boshqa ommaviy tadbirlar vaqtida bemorlar infeksiyani havo-tomchi orgali tarqalishiga sababchi bo'ladi.

Kasallik belgilari yaqqol namoyon bo'lib turgan bemorlarni alohidalash va boshqalar bilan muloqotni cheklash, kasallik yengil kechganda esa uy sharoitida yoki tibbiyot punktidagi davolash, kasallikning og'irlashuvini kuzatilganda tezlikda yuqumli kasalliklarga ixtisoslashgan shifoxonaga yotqizish talab etiladi.

**Tibbiy xizmat katta leytenant F. NIYOZOV,
Qurolli Kuchlar xizmatchisi
B. AXMEDOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi mutaxassislari**



MENING HARBIYDAGI HAYOTIM

O'z hayotiy pozitsiyalaringizni gazetamiz orqali ulashing!

Bugungi Qurolli Kuchlarimizning ma'nnaviy qiyofasi shakllanishida uzoq yillik ta'lif-tarbiya, harbiy sarkardalarimizning boy merosi, ilmiy-amaliy tajribalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijda chop etiladigan ko'pgina harbiy nashrlarni kuzatar ekanmiz, ularda berilayotgan tahliliy maqolalarning aksariyati nafaqadagi harbiy xizmatchi yoki malakali soha mutaxassislari tomonidan yozilayotganiga guvoh bo'lamiz. Chunki ulardagi yuqori ko'nikma va amaliy faoliyat yosh harbiy xizmatchilarni shakllantirishda muhim rol o'yndaydi.

Shu mantiqdan kelib chiqib, "Vatanparvar" gazetasi siz uchun yangi so'z minbari hozirladi. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

BIRINCHIDAN, nafaqadagi harbiy xizmatchilarining jo'shqin faoliyatidagi muhim jihatlar, harbiy xizmatga ilk qadam, xato va yutuqlar, hayotiy xulosa va saboqlarni o'zida aks ettirgan maqolalar "Nafaqadagi jangchi" rukni ostida e'lon qilinadi. Bunda nafaqadagi harbiy xizmatchilar o'zi guvoh bo'lgan qiziqarli voqealar, faoliyatidagi murakkab vaziyatlar va ularning odilona yechimi, armiyamizning salohiyati va qudratini yoshlarga singdirishdagi jonli tavsiyalarni misollar yordamida bayon etishi lozim.

IKKINCHIDAN, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar – o'z ishining ustalari faoliyatidan hikoya qiluvchi "Bir o'q bilan ikki nishon" rukni ostida turkum maqolalar e'lon qilib borilishi ko'nda tutilgan. Bunda soha mutaxassislarining harbiy mahorati, kasbiy fidoyiligi, ishning ko'zini bilishdagi tajribalari hamda buning nozik sirlari hikoya qilinadi.

UCHINCHIDAN, muddatli harbiy xizmatchilarining kecha va buguni o'rtafigidagi o'zgarishlar, yuksalishlar, yosh avlodni harbiy xizmatga bo'lgan intilishlarini yanada kuchaytirish maqsad qilingan "Bir yil va bir umr" rukni ostida materiallar tayyorlash. Bunda harbiy xizmatchilar o'z dunyoqarashidagi o'zgarishlar, kelgusidagi maqsadlarini tengdoshlariga murojaat tarzida ifoda etadi.

ESLATMA: Yuboriladigan maqolalar qahramonlarimizning faoliyatidagi esda qolarli voqealar, yutuqlar va muhim hayotiy xulosalar, Vatan oldidagi burch, ota-onas, oila, farzand tarbiyasidagi shaxsiy tajribalarga asoslanishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy qismidagi mas'ul shaxslar qo'l ostida fidoyilik va yuksak salohiyat bilan xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni tavsija etishlari va ko'rsatilgan sifatlar bo'yicha maqolalar tayyorlashda amaly yordam berishlari so'raladi.

Maqolalarni gazetamizning quyidagi manziliga yuborishingizni so'raymiz:

@Vatanparvargazetasi_bot yoki 90. 968-62-08 telegram raqami.

Eng sara materiallar tahririyat tomonidan tayyorlanadigan kitoblar to'plamiga kiritiladi, shuningdek eng yaxshi maqolalar mualliflari va faol ishtirokchilar munosib taqdirlanadi.

"VATANPARVAR"
BIRLASHGAN TAHRIRIYATI



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyat bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabeck Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5895
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 422 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'satkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaaavazirligi



mudofaaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya